

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

МАГИСТРАТУРА БЎЛИМИ

Қўлёзма ҳуқуқи

УДК: 336.1

Ишназаров Уйғун Абдурашидович

**Маҳаллий бюджетлар даромадлар тизимини такомиллаштириш
йўллари**

5А340601 «Давлат молиясини бошқариш» мутахассислиги

Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган

ДИССЕРТАЦИЯ

Илмий раҳбар: и.ф.н., доц.

А. Шернаев

ТОШКЕНТ-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLAR FAOLIYATINING TASHKILIIY-IQTISODIY VA XUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni shakllantirishning xuquqiy asoslari.....	7
1.2. Mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va asosiy vazifalari.....	13
1.3. Mahalliy budjetlarning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi o'ziga xos o'rni.....	19
I Bob uchun xulosa.....	27
II BOB. MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI TIZIMI VA ULARNING AMALDAGI HOLATINING TAHLILI.....	28
2.1. Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibi va ularni shakllantirishning amaldagi holati tahlili.....	28
2.2. Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig'implar salmog'i va dinamikasining tahlili.....	34
2.3. Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishning takomillashtirish yo'llari.....	50
II Bob uchun xulosa.....	57
III BOB. IQTISODIYOTNI MODYERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	58
3.1 Mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishdagi muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	58
3.2 Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishning takomillashtirish yo'llari.....	65
III Bob uchun xulosa.....	73
XULOSA.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI.....	80

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning yuritilishi, hududlar taraqqiyotining ta'minlanishi, xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda, albatta. O'z navbatida mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining samarali tashkil qilinishi hamda hududlar imkoniyatlari yildan-yilga yuksalishi ta'minlanmoqda. Zero, bugungi kunda mahalliy budjetlarga yaratib berilgan keng imkoniyatlar natijasida hududlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ishtiroki ko'zga tashlanmoqda. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek: "2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz byerayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir."¹. "...Ayni paytda biz mamlakatimizdagi o'z ichki resurslarimizning ko'lamini kengaytirish bo'yicha ham doimiy ish olib borishimiz darkor. Bu borada Tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard dollardan ortiq mablag' jamlangan ushbu Fond, avvalo, strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda yetakchi shyeriklardan biri sifatida faoliyat olib borishi kyerak."²

O'zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish va mahalliy budjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti nazariyotchilar oldiga uning qator yangi muammolari yyechimini topishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Darxaqiyqat, O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi

¹ Karimov I. A. mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

² Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budget va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali bajarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir: birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olinishi va ikkinchidan, mahalliy budgetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligi. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy xal etishga imkon beradi. Ma'lumki, bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari mahalliy budgetlar orkali namoyon buladi. Shuning uchun ham bugungi kunda xududiy budget resurslarini samarali shakllantirish va boshqarish masalasi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Aynan shuning uchun ham biz tomondan tanlangan ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Davlat daromadlarining nazariy asoslarini S.Fishyer, K.Makkonnell, Stenli L.Bryu, A.Laffyer, A.Shyeremet, V.Panskov, B.Sabanti, D.Chyernik, B.Boldirev, G.Polyak, V.Romanovski, Bezdeneynix A.V., Malisheva V.I. kabi xorijiy va I.Karimov, M.Sharifxodjaev, T.Malikov, H.Sobirov, Q.Yahyoev, E.Gadoev, N.Haydarov, N.Jumaev kabi O'zbekistonlik olimlari tomonidan yetarli darajada o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budgetlarni shakllantirish va boshqarishning hozirgi zamon muammolariga oid ilmiy tadqiq namunalarini ushbu mualliflar tomonidan mamlakatimizda nashr etilgan ishlar va himoya qilingan qator ishlarda ko'rish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. mamlakatimizda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va budget amaliyotining jahon andozalari talablariga mos keluvchi xususiyatlarni hisobga olgan holda mahalliy budgetlar daromad bazasini mustaxkamlash yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga yerishish uchun ishda quyidagi **vazifalar** qo'yildi:

- O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini va uning asosiy tamoyillarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida mahalliy budjetlarning tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy budjetlar daromadlari tarkibi va ularni shakllantirishning ahamiyatini tahlil etish;
- mahalliy budjetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlari tizimi va ularning amaldagi holatini tahlil etish;
- mahalliy-hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash yo'llarini tadqiq qilish;
- mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yanada yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini tadqiq qilish
- o'rganilgan va umumlashtirilgan xulosalar orqali mustaqil takliflar tizimini keltirish.

Tadqiqot ishining predmeti. sifatida O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlarini ijro etishda resurslarning shakllanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar maydonga chiqadi. Shunga asosan dissertatsiya ishida mahalliy budjetlar daromadlari tizimini takomillashtirish yo'llari, mahalliy budjetlarni shakllantirish va boshqarish hamda ular imkoniyatlarini oshirish jarayoni muammolari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ma'lumotlari hamda Jizzah viloyat zomin tumani mahalliy budjeti ko'rsatkichlari bo'yicha 2012-2014 yillar ma'lumotlari olindi.

Tadqiqot ishining nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy asosi bo'lib, Prezident I.A.Karimovning asarlari va mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijlik va respublikamiz olimlarining ilmiy izlanishlari hamda shu muammolarni yoritishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Moliya vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va

boshqa davlat idoralarining amaldagi yo'riqnomalari dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o'tkazishda statistik va davlat budjet daromad manbaalariga oid ko'rsatkichlar dinamikasini aks ettirish, ma'lumotlarni guruhlariga ajratish hamda indeks va normativ usullarini hisobga olib ularning tuzilishini o'rganish asosida ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chiqishlari, ilmiy risolalar, farmonlari, Oliy Majlisning qabul qilingan qaror va qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya va Ijtimoiy soha Vazirliklarining yo'riqnomalari ilmiy ishning metodik asoslari hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar olimlari, mutaxassislarining ijtimoiy sohani moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirgan ishlari tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyatini tashkil etadi.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLAR FAOLIYATINING TASHKILIY-IQTISODIY VA XUQUQIY ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni shakllantirishning xuquqiy asoslari

Mamlakatimizda budjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali boshqarilishi talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir. Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olinishidir, ikkinchidan mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy budjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, budjetlarning mustaqilligi budjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida budjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi budjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalari belgilanishi va ular mahalliy budjetlarga tushishi qonun asosida mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va budjetlarni shakllantirishdan manfaatdorligini oshiradi.

Ma'lumki, hozirda huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularni majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy budjetlarni samarali boshqarish, huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarning faoliyat ko'rsatishlari uchun tartib-qoidalarni ishlab chiqish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida budjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan. «Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi³». Budjet tizimi yagonaligi tamoyili xaqida ketayotgan bo'lsa, huquqiy baza, budjet tasnifi, budjet hujjatlari shakli, budjet jarayoni tamoyillari, pul tizimi birligi, Davlat budjeti mablag'lari bilan hisob yuritish, hisobot tayyorlash va nazorat qilishda yagona tartib amal qiladi. Amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, barcha daromadlar va xarajatlar davlat budjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanadi. Budjet daromadlari va xarajatlarini taqsimlash deganda, har bir darajadagi budjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi. Budjet tizimining barcha xarajatlari turli budjetlar o'rtasida taqsimlanib, bu u yoki bu xarajatni muayyan byujetga kiritilishini anglatadi. Bu birinchidan moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidir.

Respublika budjeti-Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar

³ O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni. //Xalq so'zi. 2000 yil 14 yanvar.

uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. «Mahalliy budjet-Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shaxar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi⁴». O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida budjetning va mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Davlat budjeti daromadlarini to'liq va o'z vaqtida tushirish, respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan iqtisodiy- ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirishda va xarajatlarni moliyalashtirishda yangi shakl va usullardan samarali foydalanish, budjetdagi taqchillikni o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni oldini olish, ish xaqi va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashni ta'minlash, shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish jarayonida budjet intizomiga rioya etish masalalari turadi. Biz bilamizki, barcha huquqlar singari moliya huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moliyaviy munosabatlarni tartibga solishning bosh qoidalarini, bu sohadagi davlat idoralari faoliyati asoslarini belgilash bilan moliya huquqi sohasining yanada rivojlanishiga yordam beradi. Davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va nizomlar ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bir qancha qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yo'riqnomalari qabul qilingan.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda moliya tizimi tushunchasi boshqa ma'noda

ham, ya'ni davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari majmui sifatida qo'llaniladi. Bu ma'noda moliya tizimi moliya organlari, kredit muassalari, soliq xizmati organlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ularga davlat

⁴ O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni. //Xalq so'zi. 2000 yil 14 yanvar

pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli vakolatlar berilgan. Xarajatlarni budjet mablag'lari hisobiga qoplash sohasidagi huquqiy munosabatning birinchi qatnashchisi bu-davlat manfaatlarini ifoda etuvchi va davlat nomidan mablag'larini byeruvchi moliya tashkilotidir. Budjet xarajatlarini ayrim turlarini belgilash, choraklar bo'yicha taqsimlash, kredit ochish, kreditni chaqirib olish, budjet mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanish ustidan nazorat olib borish moliya idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet orqali moliyaviy ta'minlash yuzasidan munosabatlar ishtirokchilaridan biri-kredit muassasasi hisoblanadi. Kredit muassasasida budjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar uchun hisobraqam ochiladi. Kredit muassasasi budjetni kassa ijrosida va moliyaviy intizomga rioya etish yuzasidan nazoratni amalga oshirishda ishtirok etadi. Budjet orqali moliyalashtirishning uchinchi ishtirokchisi bo'lib budjet mablag'larini taqsimlovchi budjet tashkiloti hisoblanadi. U o'z tashkiloti uchun ajratilgan budjet mablag'larini tasarruf qiladi, ularning o'zidan quyida turadigan taqsimlovchilarga o'tkazadi. Davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarishning eng tezkor va yuqori natija beradigan usullari, mexanizmlari sifatida huquqiy normalar chiqarish, ularni qo'llash orqali boshqarish ma'qul deb e'tirof etilgan bo'lib, bu usul davlat majburlovini, hokimiyat kuchini o'zida mujassamlashtirganligi uchun ham mamlakat iqtisodiy, moliyaviy, sohadagi voqea-hodisalar va jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatish, ularni maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi yagona, bir butun mexanizmdan iborat bo'lganligi munosabati bilan Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z tasaarufida butun davlat moliyasiga nisbatan aniq belgilangan funktsiyalarni bajaradi. Masalan, ular o'z hududlarida daromadlarning respublika budjetiga kelib tushishini ta'minlaydi, tasdiqlangan budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida davlat ehtiyojlari uchun asosiy jamg'armalar va vositalarni olish va qayta ishlash uchun kapital xarajatlarni amalga oshiradi. «Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z vakolatlari doirasida tegishli ma'muriy-hududiy birliklar

moliyasiga rahbarlik qilinishini ta'minlaydi. Ushbu organlar, xususan, mahalliy budjetlar loyihalarini ishlab chiqadi, ularni tasdiqlaydi va ijro etadi, shuningdek, mazkur budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi, qonunchilikka muvofiq ravishda mahalliy budjetga kelib tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdori va ular bo'yicha sarflanadigan budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishlari mumkin⁵». Davlatning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlarining barchasi ishtirok etadi, chunki ularning har biri moliya bilan bog'liq bo'lgan muayyan funktsiyalarni bajaradi. Shu bilan birga ular moliyaviy faoliyatining xususiyati va mazmuni bir-biridan farq qilib, bu ushbu organlarning vazifalari va huquqiy holatidagi farqlar bilan belgilanadi. Shularni hisobga olgan holda, davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining hokimiyat va boshqaruv, markaziy va mahalliy idoralari amalga oshiradigan moliyaviy faoliyat ular oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga, berilgan vakolatlarga muvofiq turli shaklda amalga oshiriladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari hokimlar, xalq deputatlari kengashlari o'z vakolatlari doirasida mahalliy moliya faoliyatini amalga oshiradi. Moliyaviy faoliyati amalga oshiruvchi barcha davlat idoralari qanday darajada bo'lishidan, vakolatlari doirasidan qat'iy nazar mamlakat iqtisodiy va moliyaviy qudratini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni va rivojlanishni ta'minlash, mahalliy moliyani mustahkamlash yo'lida harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat byergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va uning asosida chiqarilgan boshqa qonunlarga muvofiq davlatning moliyaviy faoliyati uning xokimiyat, boshqaruv hamda mahalliy xokimiyat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga muvofiq davlat idoralari tomonidan

⁵ Li A. Moliya huquqi. Darslik. Toshkent Davlat yuridik instituti. 2004. -398b.

moliyaviy faoliyat davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi bir qator tamoyillarga, aniq qoidalarga muvofiq ravishda olib boriladi. Bu tamoyillar moliya, kredit, soliq va bank sohasidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Davlat xarajatlari sohasidagi huquqiy munosabatlar ularning ishtirokchilari huquqlarining belgilanganligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlarda davlat manfaatlarini ifodalovchi, uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan budjet mablag'lar oluvchilarga nisbatan hokimiyat ta'sirini o'tkazish usulida ish olib boriladi. Davlat belgilangan tartibda budjet xisobiga moliyalashtiriladigan xarajat turlarini, me'yorlarini, moliyalashtirish ob'ektlarini belgilaydi, o'z ko'rsatmalarini bajarilmaganda esa aybdorlarga nisbatan qat'iy choralar ko'radi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so'ng davlatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarishda budjet tizimi uni tashkil qilish hamda uning huquqiy-me'yoriy bazasini yaratishdek muhim masala turgan edi. Shu sababdan Prezidentimiz va soha rahbar xodimlari boshchiligida ushbu masalaga katta e'tibor qaratildi. Chunki jamiyatning, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta'minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish, davlatimizning hozirgi kunda budjet va budjet siyosatining asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda budjet tizimining keyingi rivojlanishini boshqaradigan qonunchilik xujjatlari qabul qilindi, bularga muvofiq quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Barcha darajadagi budjetlarning iqtisodiy mustaqillik printsipini targ'ib qilish va ularni alohida shakllanishining me'yoriy asoslarini belgilash. Davlatning kelgusi davrdagi maqsad va vazifalarini moliyalashtirishni ta'minlashning asosi negizi sifatida barcha darajalardagi byujetlarni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish jarayoni muddatlari hamda bosqichlari jihatidan kelishilgan har bir bosqichning aniq ijrochilari ko'rsatilgan yagona budjet sikli bo'ladi. Belgilangan qat'iy kalendar muddatlari budjet jarayoni barcha qatnashchilarining muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashlariga ko'maklashadi. Ayrim bosqichlarda muddatlarni o'zboshimchalik bilan belgilash esa butun jarayonni izdan chiqarib yuborishi mumkin. Bu esa birinchi navbatdagi sarf-xarajatlarning o'z vaqtida moliyalashtirilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budget hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy budgetlarni rejalashtirish va ijro etishdagi huquqlarini kengaytirish lozim. Respublika budjeti va mahalliy budgetlarning o'zaro aloqalarini qonuniy asoslarini yanada takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

1.2. Mahalliy budgetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va asosiy vazifalari

Bizga ma'lumki, mahalliy budget - davlat budget tizimining alohida bo'g'ini hisoblanadi. Umumdavlat pul mablag'larining budget bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy budgetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Bugungi kundagi davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda moliyaviy ta'minlashni mustahkamlash, butunlay yangi moliya, budget va soliq mexanizmini yaratish, budgetlararo munosabatlarni tartibga solish va mahalliy budgetlar ijrosi samaradorligini ta'minlashning yangi uslubiyoti va tamoyillarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Mahalliy budget mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy xujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi budget qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy budget xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Mahalliy budjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy budjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega. Mamlakat budjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bosqichdan, davlat budjeti va mahalliy budjetlardan iborat. Fedyeral tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budjet tizimi uch bo'g'indan iborat. Mahalliy budjetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mahalliy budjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

Mamlakatimizda budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Jamlangan budjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi jamlangan budjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan budjet ko'rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas,

chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari jamlangan budjetdan olinadi. O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi ikki bo'g'indan iborat.

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi- mahalliy budjetlar hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida Respublikasi budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri budjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butundir, ya'ni budjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat budjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tumanlari budjetlarining uzviy birligini bildiradi (chizma).

Budjet birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligini belgilab beradi. Budjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umuman respublikani Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltiriladigan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi. Budjet yaxlitligi budjetga doir prognozlashtirish uslubiyati va tashkil etish bir butunligini kafolatlaydi. Budjetning yaxlitligi tufayli respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasiga oladi, uni budjet tizimining faqat biror - bir bo'g'iniga taqdim etish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga birlashtiriladigan barcha budjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika budjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi

qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi budjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munitsipal iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalarini muvofiq ravishda tashkil etish, ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munitsipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal budjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka yerishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shunindek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jarayoni mamlakatimizning ham davlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimiz davlat budjetining ijrosini rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda joriy etilgan va qisqa muddat mobaynida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgan g'aznachilik tizimi faoliyatini joriy qilish arafasida turibdi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning asosiy vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatdan kelib chiqqan holda ko'rib chiqamiz. Mahalliy budjetlarni har tomonlama va barqaror rivojlantirish, sanoatning izchil taraqqiy topishini ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va mahalliy mehnat bozorini tashkil etish masalalarida mahalliy hokimiyat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Budjet siyosatining ahamiyati, budjet jarayonlarida mahalliy budjetlarning roli, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati, moliya va budjet siyosati masalalari hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va mahalliy budjetlar muammolarni hal etishning dolzarb masalalaridir. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish mahalliy budjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'ymoqda. Mahalliy budjetlar Davlat budjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy

budjetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga juda katta hissa qo'shish bilan bir qatorda xalqimiz farovonligining oshishiga hamda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq qo'shilishiga yordam beradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshiralayotgan islohotlar jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'z navbatida, mahalliy hokimiyatlarni vakolatini kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri-budjet jarayonidagi vakolatlarini oshirish bilan bevosita bog'liq, chunki, mahalliy budjetlar hokimiyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi. Darxaqiqat, O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali boshqarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir.

Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olinishidir, ikkinchidan mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy budjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, budjetga «bu - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari

fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat⁶» deb ta'rif byerilishida aynan mahalliy budjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zaxiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat budjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi (chizma). Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy davlat xokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, o'z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tegishli ma'muriy hududiy birlik ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi.

Budjet tamoyillarining barchasi budjet barqarorligini ta'minlash va xo'jalik sohalari, iqtisodiy hududlar o'rtasida mablag'larni taqsimlash, zarur nisbatlarni (proportsiyalarni) tashkil qilish, budjet xarajatlarini daromadlariga mos balanslashtirish, moliyaviy rezyervni tashkil qilish uchun xizmat qiladi. Bu esa davlat moliyaviy siyosatining bosh maqsadidir. Albatta, ushbu ishlarni amalga

⁶ Yo'ldoshev, Y.Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 1999. -24b.

oshirish asosan mahalliy budjetlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotganligidan hammamiz xabardormiz. Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylayman.

1.3. Mahalliy budjetlarning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi o'ziga xos o'rni


Mamlakatni modyernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni yanada samarali rivojlantirish ko'p jihatdan moliya tizimiga bog'liq va uning bo'g'inlariga bog'liq. Bu borada davlat moliya siyosati va moliya-budjet amaliyotining uslubiyoti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari ichida birinchilardan bo'lib iqtisodiyotni yirik miqyosda isloh qilish, tubdan o'zgartish va jamiyatni yangilash yo'liga o'tdi. O'sha davrda milliy moliya tizimini barpo etish g'oyatda muhim vazifaga aylandi va amalda bu vazifa bajarildi. O'tgan yillar davomida moliya tizimi shunday darajaga etishdiki, buni mamlakatimizda olib borilayotgan samarali islohatlar natijasi deyish mumkin. Budjet, bank-kredit tizimi Prezidentimiz I.A.Karimovning doimiy diqqat e'tiborida bo'lgan holda quyidagi fikriga to'xtalib o'tsak. "O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarning barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustaxkam zaxiralar yaratilganligini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanligini ta'kidlash joiz"⁷

Umumdavlat pul mablag'larining budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy budjetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy

⁷ I.A.Karimov. "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent. "O'zbekiston" – 2009 yil.

qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromatlardan shakllanadi

O'z daromadlari yoki biriktirilgan daromadlar, to'liq yoki qat'iy belgilangan ulushda bevosita mahalliy budjetga tushadigan mablag'lardan iborat. O'z daromadlarining asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi.




1-rasm.Mahalliy budjet daromadlarining tarkibiy tuzilishi⁸

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo'lishi kyerak. Shuning uchun mahalliy budjet daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim. Mahalliy budjet daromadlarining manbalari tarkibi 2-rasmda ko'rsatilgan.

Shunga muvofiq mahalliy budjetlar daromadlari o'z daromadlari (mahalliy

⁸ Vahobov A., Malikov T.S. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 45-bet

solliqlar va yig'implar) va yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar) hisobidan shakllanadi. Mahalliy budjetlarning eng birinchi daromad manbai bo'lib mahalliy soliqlar va yig'implar xizmat qiladi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy budjetlarga to'liq biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi.



2-rasm. Mahalliy budjet daromadlarining manbalari tarkibi⁹

Mahalliy soliqlar mahalliy budjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar mahalliy budjetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi. Budjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili budjet parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi¹⁰. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy budjetlarning o'z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o'zgartirilib boriladi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy budjetlarning o'z daromad

⁹ Vahobov A., Malikov T.S. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 47-bet

¹⁰ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002. 41-bet

manbalari (solliqlari) ko'payib qolsa, umumdavlat solliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Budjet tizimidagi olib borilgan qator islohotlar albatta o'z natijasini byermasdan qolmadi. Chunki, aynan shu islohotlar tufayli davlat budjeti keyingi yillarda defitsit bilan emas balki oshig'i bilan ya'ni profitsit bilan ijro etilmoqda. Budjet tizimiga oid qator qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Bu budjet tizimining yanada rivojlanishi va takomillashishiga sabab bo'ldi. Birgina misol «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunni olsak, ushbu qonun budjet tizimida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bir qator chora – tadbirlar orqali budjet tizimida ulkan yutuqlarga yerishildi. Lekin, yutuqlar bo'lgani bu kamchiliklar, yechimini kutayotgan muammolar va masalalar ham yo'q emas. Darxaqiqat, mahalliy budjetlarning barqaror bo'lishi uchun ularning biriktirilgan daromadlari ya'ni moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lishi va shuning bilan bir qatorda, mahalliy budjetlarning harajatlarini optimal xolatga keltirib moliyalashtirilishi darkor. Ta'bir bo'lsa aytish joizki, bugungi kunda jahonning barcha davlatlari iqtisodiyotiga ta'sir qilgan moliyaviy – iqtisodiy inqirozi mamlakatimiz iqtisodiyotini ham chetlab o'tmadi. Ammo, inqiroz mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatiga unchalik ta'sir etmadi. Buning sababi o'z vaqtida 2010-2013 yillarga mo'ljallangan Davlatimizning oqilona iqtisodiy siyosat olib borganligidir. Buning zahirida mahalliy budjetlarning o'rni beqiyos. Negaki mamlakatda hududlar qanchalik rivoj topgan bo'lsa, shu davlat iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar sirasiga kiradi. Zero, mahalliy budjet – davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi, unda daromadlar manbalari va ulardan tushum miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniqlangan maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Keyingi yillarda mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini yanada mustahkamlashga katta e'tibor byerilmoqda. Mamlakatimizda mahalliy budjetlarni moliyaviy imkoniyatiga qarab ikkiga ajratish mumkin. Bular nochor va donar deb yuritiladi. Aynan nochor hududiy budjetlarning moliyaviy salohiyati oshirilmoqda.

Quyidagi jadvalda mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlarining nisbati keltirilgan

Mahalliy soliqlar va yig'implardan yer solig'i mahalliy budjetning daromadlari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi. Yer solig'i tuproq unumdorligini oshirish, yerdan samarali foydalanishga yerishish, uni jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'zlashtirishini rag'batlantirish hamda undan foydalanuvchilarning iqtisodiy ahvolini tenglashtirishni nazarda tutib, ular tomonidan budjetga to'lanadigan majburiy demokratik to'lov turidir. O'zbekistonda yer solig'ining iqtisodiy chegarasi bu soliq uchun har bir zona bo'yicha stavkalarni belgilanishi hisoblanib, soliqning belgilangan stavkalardan ortiq yoki kam hisoblanishi va undirilishi noqonuniy hisoblanadi. Yer solig'ini hisoblash va undirishning huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hisoblanadi. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara xaqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yyer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara xaqi yer solig'iga tenglashtiriladi. yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yyer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni xisoblab chiqarish, soliq xisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

Mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga byeruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda,

xar bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'ektidir.

Yagona yer solig'i to'lovchilar uchun yer solig'i ob'ektlari ularga egalik qilish va foydalanish uchun berilgan yerlarning normativ qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Yerning normativ qiymati Davlat yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo'mitasi tomonidan aniqlanib, har bir soliq to'lovchiga moliya yilining 1 apreliga qadar yetkaziladi. Bizningcha yer solig'ini normativ va xaqiqiy qiymat asosida soliqqa tortilishi adolatli hisoblanadi. Bunda esa yerning normativ qiymatini vakolatli organ tomonidan hududlar bo'yicha belgilab byerilishi lozim. Yerning xaqiqiy qiymati sifatida esa ko'chmas mulk birjalari orqali yerni sotib olingan qiymati olinib, bu qiymatlar jismoniy shaxslar uchun ham, yuridik shaxslar uchun ham yer solig'i ob'ekti hisoblanishi hamda qonunchilik bilan belgilangan stavkalar bo'yicha undirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa bizning nazarimizda yerdan soliq undirishni dunyo amaliyotiga o'tishini ta'minlab, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni ancha soddalashtiradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun yerning belgilangan normativ qiymatiga nisbatan yer solig'i hisoblab chiqiladi. Bu tartibda soliqqa tortishning amal qilishi soliq to'lovchilar uchun ham, davlat soliq xizmati organlari uchun ham soliq ob'ekti va miqdorini hisoblashda birmuncha noqulaylik vaziyatlarini keltirib chiqarmoqda. Yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblar uchun axborot manbai bu soliq hisobi ma'lumotlari hisoblansada, bugungi kunda yer solig'ini hisoblash va undirish amaliyotida yer solig'i hisobi bo'yicha registrlar ishlab chiqilmagan. Buning natijasida esa soliq bo'yicha hisobotlarni tuzishda qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish talab etilmoqda

Mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar orasida mol-mulk solig'i ham o'ziga xos o'ringa egadir. Bu soliq

xususiyatlari xaqida gap ketganda avvalo mol-mulk tushunchasi, uning turlari, ob'ekti va sub'ektlari tarkibini tadqiq etish lozimdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra mol-mulk fuqarolik huquqlari ob'ekti sifatida ko'chmas va ko'char mulkka bo'linib, ko'chmas mulk yer uchastkalari va yer osti boyliklari, ko'p yillik daraxtlar, shuningdek, binolar va inshootlardan iboratdir. Bu guruhga kirmaydigan mol-mulklar esa ko'char mulk hisoblanadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish xususiy mulk huquqining vujudga kelishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning, O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqiylikini va huquqiy jihatdan barobar muhofaza etilishi kafolatlanadi"¹¹ deb belgilab qo'yilgan.

Davlat xususiy mulkni soliqqa tortish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo'lgan mulkning qonuniyligini hamda ularning harakatini nazorat qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa jamiyatdagi barcha mol-mulkning hisob-kitobini to'g'ri yuritish va ulardan belgilangan miqdorlarda soliq undirib borish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobat bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi hamda narxlarning keskin o'zgarishi bevosita mol-mulklarning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy vositalar qiymatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Bu holatni esa davlat faqat korxona miqyosida emas, balki jamiyat miqyosida ham to'g'ri va aniq hisobi yuritilishini talab etadi. Mol-mulk qiymatini qayta baholash natijalarini esa ularni soliqqa tortishda ham

¹¹ O'zbekiston Respublikasi "Mulchilik to'g'risida"gi qonuni. T.: Adolat. 2003 y.

inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

Mol-mulk solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati davlat budjetining shakllanishi va uning daromadlarini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolar mol-mulkining ko'payishidan bevosita manfaatdor bo'lganligi sababli, ularga tegishli bo'lgan mulklar daxlsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga olib, qonuniy kafolatlaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar esa o'z mol-mulklarining daxlsizligi ta'minlanganligi evaziga o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulklaridan davlatga belgilangan tartib va miqdorlarda soliq to'laydilar. To'langan soliqlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush darajasini yaxshilash kabi tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, mol-mulk solig'i ob'ekti bo'lib nafaqat mol-mulk qiymati, balki vaqtida tugallanmagan qurilish va belgilangan muddatda o'rnatilmagan uskunalarining qiymati ham hisoblanadi. Bundan kelib chiqib esa soliq to'lovchilar o'z ixtiyoridagi mavjud kyeraksiz va ortiqcha uskunalar hamda mulklarning saqlanishiga chek qo'yishga intiladilar. Mol-mulk solig'ini undirish bilan bir qatorda davlat yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulkni respublika bo'yicha aniq hisobini olib borishi mumkin. Soliq to'lovchilar har chorak va yil yakuni bo'yicha mol-mulkining xaqiqiy o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, yil boshidan o'sib borish tarzida mustaqil ravishda tuzatishlar kiritib boradilar.

Yana bir masalaga diqqatimizni qaratmoqchimiz, ya'ni mol-mulk solig'ining rag'batlantiruvchilik xususiyatini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etishdir. Bizningcha bu minimumning joriy etilishi endigina o'z faoliyatini boshlagan, iqtisodiyot uchun muhim tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini birmuncha yaxshilashga xizmat qilgan bo'lar edi. Korxona imtiyozdan bo'shagan mablag'ni ishlab chiqarishga qayta tashlashi natijasida esa uning kelgusidagi soliq bazasini kengaytirilishiga erishilgan bo'lar edi. Kelgusida soliqqa tortiladigan bazaning kengayishidan esa davlat bevosita manfaatdordir.

Bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlarda bu amaliyotdan keng miqyosda foydalaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy soliq va yig'implar samaradorligini oshirish mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish yo'llaridan biridir.

I Bob bo'yicha xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy budjetlarda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uzviy davom etmoqda, bu esa mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi va xalqimiz farovonligi ta'minlanayotganligini o'zida aks ettiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliqqa tortish islohotlari iqtisodiy yangilanishlarning tarkibiy qismi sifatida umumiy iqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda mahalliy soliqlar va yig'implar tizimini davr talabidan kelib chiqib takomillashtirish, undan aholining turmush darajasini tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va budjetga muntazam ravishda daromadlar kelib tushishini ta'minlash uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI TIZIMI VA ULARNING AMALDAGI HOLATINING TAHLILI

2.1. Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibi va ularni shakllantirishning amaldagi holati tahlili

Hozirgi kunda ko'pchilik iqtisodchilar hamon moliyaviy imkoniyat (potentsial)ni moliyaviy resurslar bilan birday tahlil etmoqdalar. Bizning fikrimizcha, ushbu tushunchalar mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsada, ular birday narsa emas. Hudud moliyaviy resurslarini moliyaviy imkoniyatining foydalanilayotgan bir qismi deb, ya'ni hududda mavjud resurslardan foydalanishdan turli iqtisodiy sub'ektlar olgan pul daromadlari va jamg'armalari sifatida talqin etish mumkin. Hudud moliyaviy imkoniyat (potentsial)ini esa «hududda mavjud resurslarning ma'lum davr mobaynida turli iqtisodiy sub'ektlarga daromad keltira olish salohiyati» deb izohlash lozim. Ushbu salohiyat amalga oshmay qolishi yoki ishlatilmay qolishi ham mumkin, shuning uchun ham moliyaviy imkoniyat (potentsial) – baholovchi, ehtimoliy tushunchadir.

Odatda ko'pincha moliyaviy resurslar tarkibi tahlilida davlatning, hududlar xo'jalik sub'ektlarining oxirgi vaqtlarda aholining moliyaviy resurslari ajratib ko'rsatilmoqda. Shu boisdan bo'lsa kerak, ayrim mualliflar hudud moliyaviy imkoniyati (potentsiali) tarkibida huquqiy shaxslar, aholi va davlat moliyaviy imkoniyatlarini ajratib ko'rsatayotirlar¹².

Bizning fikrimizcha, bunday tavsif ham noo'rindir. Moliyaviy imkoniyat tushunchasi ko'p jihatdan davlat, alohida hudud yoki mahalliy boshqarish bo'g'ini (mahalliy budjetlar) uchun xosdir.

Garchi tashkilotlarning (korxonalar) moliyaviy imkoniyati xaqida gapirish mumkin bo'lsada, biroq aholi moliyaviy imkoniyatini baholash o'ta mushkul masaladir.

Hudud moliyaviy imkoniyati (potentsiali)ni baholashning o'ziga xos

¹² Kolomnets A.L., Novikova A.I. "O sootshenii finansovogo i nalagovogo potentsialov v regionalnom rezreze". //Nalogoviy Vestnik, 2001, N-3, s.-5.

uslubiyotini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi qoshidagi ilmiy markazlarda to'liq o'rganilmayotganligi yoki budjet amaliyoti uchun aniq tavsiya va yo'riqnomalarning mavjud emasligi hozirgi kunda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Budjet daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Masalan, quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasining 2012-2014 yillardagi Davlat budjetining daromadlarini tarkibi aks ettirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Davlat budjeti parametrlari¹³

Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2012 yil (mlrd. so'm)	2013 yil (mlrd. so'm)	2014 yil (mlrd. so'm)	Budjet darmadlarida salmog'i, %da
Davlat budjeti daromadlari	20 614,1	25 104,9	30 160,8	100
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	5 196,4	6 583,1	7 790,4	25,8
Bilvosita soliqlar	11 187,8	13 039,4	15 618,2	51,8
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	2 746,4	3 755,5	4 521,4	15,0
Qo'shimcha foyda solig'i	250,0	294,5	388,4	1,3
Boshqa daromadlar	1 233,5	1 432,4	1 842,4	6,1
Budjet xarajatlari	21 571,7	26 312,4	31 582,3	Budjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz

Demak, keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari 2012 – 2014 yillardagi rejalashtirilgan to'g'ri

¹³ O'zR Davlat soliq qo'mitasining yillik xisobotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

(bevosita) soliqlar, egri (bilvosita) soliqlar, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, ustama foydadan olinadigan soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqa daromadlardan ko'rish mumkin. Davlatimiz budjetining daromadlari tarkibiy tuzilmasida egri (bilvosita) soliqlar, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hal qiluvchi rolni o'ynamoqda. Aynan shu guruhga kiruvchi soliqlar hisobidan Davlat budjeti daromadlarining qariyb yarmi (53 %) shakllanayapti. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Birgina qo'shilgan qiymat solig'i yordamida Davlat budjeti daromadlari qariyb $\frac{1}{4}$ qismining shakllanayotganligi bu soliqning budjet daromadlari tuzilmasidagi o'rnining qanday ekanligini yaqqol ko'rsatayapti.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy potentsialni mahalliy budjetlarga nisbatan talqin etilganda, asosli tarzda uning doirasini daromadlar bazasi bilangina cheklab qo'ymasdan, balki uni o'sib borayotgan majburiyatlar sur'atlariga muvofiq tarzda davlatning qo'shimcha tadbirlari tizimidagi aniq choralar bilan ham muvofiqlashtirib borish lozimligini ta'kidlash joizdir¹⁴. Shunga ko'ra, «mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyati uning xarajatlari dinamikasidagi o'sish sur'atlariga mos tarzdagi va jahon andozalariga mos budjet me'yorlarining bajarilishini ta'minlashga imkon byeruvchi daromad bazasining shakllanishi»dir degan xulosani berish mumkin.

Mahalliy budjetlarning daromadlari shuningdek, tartibga soluvchi daromadlardan ham tashkil topadi. Tartibga soluvchi daromadlar deganda mahalliy budjetlarga yuqori budjet tomonidan ajratiluvchi daromadlar tushuniladi.

Mahalliy budjetni daromad bazalarini mustahkamlashda ular ixtiyoriga berilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tadbirlar muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy budjetlar mahalliy soliqlar va

¹⁴ Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки. «Финансии», 2003, №2, с.- 63-65.

yig'implarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil bo'lsalarda, Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan tegishli me'yorlar doirasida faoliyat yuritadilar. Mahalliy budjetlar amaliyotidagi muhim xususiyat «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunda belgilanganidek, mahalliy budjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmasligidir. Davlat moliya siyosatida mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining balansligi respublika budjeti ajratmalari orqali kafolatlanmoqda.

Aholi yashash sharoitini yaxshilash, turar joy va kommunal xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish mahalliy budjetlar xarajatlarining asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Mahalliy budjetlarni daromadlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasini «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunining 18-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu moddaga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari:

- qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'implar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq myeros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

- yuqori budjetlardan beriladigan budjet subventsionalari, budjet dotatsionalari va budjet ssudalari;


- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona

va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida o'tgan yilda mamlakatimizda soliq yuki sezilarli darajada pasaytirilganiga qaramasdan, davlat budjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlar to'liq bajarilgani, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etganini ta'kidlab o'tdi




3-rasm . Davlat budjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi¹⁵

(foizda)

Rasmdan ko'rinadiki, 2001-2013 yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini -1 foizdan -0,4 foizga pasaytirish, 2006-2009 yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, juda murakkab kechgan 2013 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budjet daromadlarining xarajatlardan ortish hajmi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari



4-rasm. Mahalliy budjetlarning daromadlari tizimi¹⁶

Umuman olganda, davlat budjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich isloh etish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga 2013 yilda ham alohida e'tibor qaratildi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2009 yil uchun O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjetining asosiy parametrlari to'g'risida"gi № 1024-sonli qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Chunonchi, davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga yo'naltirdi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga sarflandi. Mahalliy budjetlar daromadlari tizimini ikki guruhga ajratish mumkin, ya'ni mahalliy budjetlarning birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlari tizimiga.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjet tizimida mahalliy budjetlarning tutgan o'rini quyidagi jadval asosida tahlil etish mumkin.

2.2. Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig'imlar salmog'i va dinamikasining tahlili

O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yuzasidan islohotlar quyidagi dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi lozim: mahalliy budjetlarning o'z va birlashtirilgan daromadlarini oshirish; davlatning markazlashgan moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish; budjetlararo munosabatlarni mukammallashtirish orqali mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish; budjet jarayoni va yangi budjet tasnifini takomillashtirish; hududiy iqtisodiyot muammolarini ijobiy hal etish imkonini byeruvchi mahalliy budjetlar samarali ijrosini ta'minlash mexanizmini yaratishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish, mahalliy hokimiyat organlarini ushbu budjetlarni tuzish, ijro etishdagi huquqlarini kengaytirish bilan bog'liqdir. Ko'p davlatlarda, jumladan, Fransiyada budjetlar ijrosi Moliya Vazirligining tarkibiga kiruvchi Davlat G'aznachiligi boshqarmasi tomonidan olib boriladi. Budjet ijrosi davomida tushgan daromadlar va belgilangan yo'nalishda ularni xarajat qilish ushbu boshqarma tomonidan olib boriladi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida ham mahalliy budjetlar ijrosi davomida mahalliy budjetlarda mavjud bo'lgan bo'sh mablag'larni qisqa muddatlarga (budjet yili chegarasida), bank muassasalariga sotish imkoniyati mavjud. Bu bir vaqtning o'zida mahalliy hokimiyatlarning mahalliy budjetlarni bajarishdagi ma'suliyatini oshirish, ularni shu sohadagi mustaqilligini kengaytirish bilan birga olib borilishi kyerak.

Mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismini soliqlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi, shu sababli soliq tizimi fiskal funktsiyasining kuchayishi, korxonalar moliyaviy ahvolidan og'irlashuviga olib keladi. Shuning uchun so'nggi yillarda respublikada soliq tizimining rag'batlantiruvchi vazifasini oshirishga, korxona va tashkilotlarning soliq yukini kamaytirish siyosati olib borilmoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni ko'paytirish, chet el kapitali kirib kelishini rag'batlantirish maqsadida soliqlardan imtiyozlar saqlab qolindi.

So'nggi yillarda yuqori budjetlardan o'zaro hisob-kitoblar asosida beriladigan mablag'lar mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rinni egallamoqda. Mahalliy budjetlar hozirgi iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida respublikamiz hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjet umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, mahalliy budjetlar daromadlarining tarkibiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'lib, amaliyotda ular biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlarga bo'linadi. O'z navbatida soliq tizimidagi barcha soliq va yig'imlar qaysi budjetga tushishiga qarab umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi xususiyatidan hamda soliq tushumlarining yo'nalishidan kelib chiqadi. Har bir xokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjeti va uni ta'minlaydigan manbalarga ega bo'ladi. Quyidagi 3-jadval orqali davlat byudeti daromadlari tarkibida mahalliy soliqlarning tutgan o'rni va o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjetlarga biriktirilgan mahalliy soliqlardan tushumlar davlat budjeti daromadlari tarkibida 11-14 foiz atrofida tebranib turibdi, ya'ni 2010 yilda 12,4 va 2011 yilda 12,7 foiz bo'lgan


Davlat byudeti daromadlari tarkibida mahalliy soliqlarning tutgan o'rni¹⁷

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil	
		summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)
I	Davlat maqsadli pul jamg'armalarsiz daromadlar-jami	13 116,4	100	16178,5	100	20614,1	100	25109,9	100	30 168,8	100
1.	Mol-mulk solig'i	354,1	2,7	490,2	3,0	642,0	3,1	831,4	3,3	1 135,0	3,8
2.	Yerl solig'i	303,9	2,3	346,9	2,1	446,0	2,2	646,3	2,6	665,2	2,2
3.	Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	457,6	3,5	530,6	3,3	446,4	2,2	659,9	2,3	767,8	2,5
4.	Jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq	315,5	2,4	430,7	2,7	555,4	2,7	582,5	2,3	847,1	2,8
5.	Suv resurslaridan soliq	51,2	0,4	61,6	0,4	73,1	0,4	97,7	0,4	125,4	0,4
6.	Qat'iy belgilangan soliq	139,1	1,1	187,5	1,2	218,1	1,1	342,1	1,4	505,0	1,7
	Jami mahalliy soliqlar	1621,4	12,4	2047,5	12,7	2381,0	11,7	3169,9	12,6	4045,5	13,4

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlariga asosan tayyorlandi, PQ № 1245, 1449, 1675, 1887, 2099

bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1 foizga kamayib, 11,7 foizni tashkil etgan. 2013 yilda yana 0,9 foizga oshib jami daromadlarning 12,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2014 yildagi budjet soliq siyosatiga asoslangan holda 13,4 foiz bo'lishi kutilmoqda, ya'ni o'tgan 2012 yilga nisbatan 0,8 foizga ortishi kuzailmoqda.

Ushbu ma'lumotlarni boshqacha tarzda tahlil qiladigan, bo'lsak, ya'ni davlat budjeti tarkibidagi mahalliy soliqlarning o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, 2011 yilda 2010 yilga nisbatan 126,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 10 foizga kamaygan va 116,3 foizni tashkil etgan, 2012 yilga kelib esa, 133,1 foizga yetgan, ya'ni 16,8 foizga ko'tarilgan, ammo 2014 yilga kelib, mahaliy soliqlarning budjetdagi ulushini ko'payganligiga qaramasdan, o'tgan yilga nisbatan 126,7 foizni tashkil etishi va 5,5 foizga kamayishi kuzatilmoqda (5 - rasm).



5-rasm. Davlat budjeti daromadi tarkibida mahalliy soliqlar ulushining o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi¹⁸, foizda

Mahalliy soliqlar va yig'implarni jami budjet daromadlaridagi ulushining o'zgarishiga soliq stavkalari ham ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy soliqlar va yig'implarning stavkalarini tahlil qiladigan bo'lsak, asosan mol- mulk solig'i, yer solig'i va jismoniy shaxslardan yoqilg'i iste'moli uchun soliq stavkalarini

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlariga asosan tayyorlandi, PQ № 1245, 1449, 1675, 1887, 2099

yillar davomida o'zgarayotganligini kuzatish mumkin. Maslan, jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i 2010 yilga qadar soliq solinadigan ob'ektlarning qiymatidan 0,5 foiz miqdorida undirilgan bo'lsa, 2011 yildan mol-mulkning hajmidan kelib chiqib, 3 xil stavka joriy etilgan: shahar joylarda 200 kv metrgacha, 200-500 kv metrgacha va 500 kv metrdan oshgan turar joylar uchun. Bu stavkalar o'z navbatida keyingi yillarda o'zgarib turibdi, ya'ni oshmoqda. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, soliqqa tortiladigan ob'ekt qiymatidan 2013 yilgacha 3,5 foiz miqdorida undirilgan bo'lsa, 2014 yilda 4 foiz qilib belgilandi, bunday stavkada 2000 yilda udirilgan. Shuningdek, 2001 yilda soliqqa tortish ob'ektiga yuridik shaxsga tegishli bo'lgan uy-joylar ham kiritilishi ko'zda tutilgan.

Yer solig'i yuridik va jismoniy shaxslarning egaligidagi yerl hajmidan kelib chiqib undiriladi va bunda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerllar bo'yicha yerlning boniteti va qaysi hududda joylaganligidan kelib chiqilsa, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yerl solig'ini hisoblashda asosan hududlarning markazga yaqin yoki uzoqligi, qaysi hududda joylashganligi inobatga olinadi.

Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi yillar mobaynida o'zgarmagan holda sof foydadan 8 foiz miqdorida belgilangan.

Ayrim turdagi mahsulotlar bilan savdo qilish uchun yig'im, 1 savdo oyi uchun minimal ish xaqi miqdorida to'lanadigan yig'im bo'lib, alkogoll mahsulotlari bilan savdo qilganlik uchun 5 minimal ish xaqi, qimmatli tosh va qimmatli metallar bilan savdo qilganlik uchun 3,5 minimal ish xaqi miqdorida va avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash maqsadida pullik xizmat ko'rsatish huquqi uchun yig'im 8 minimal ish xaqi miqdorida saqlanib turibdi.

Mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromdalari bazasini mustahkamlash va mahalliy budjetlarning mustaqilligini ta'minlash davlat budjeti ijrosini to'laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy soliqlar va yig`imlarni stavkalari¹⁹

Soliqlar turi	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.
Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i, sof foydadan	8%	8%	8%	8%	8%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, soliqqa tortiladigan ob'ekt qiymatidan	3,5%	3,5%	3,5%	3,5%	4%
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, soliqqa tortiladigan ob'ekt qismatidan, 200 kv m gacha	0,5%	0,75%	0,9%	1,04%	1,2%
Shaharlarda joylashagan uy va kvartiralar uchun 200 500 kv mgacha		0,9%	1,1%	1,25%	1,4%
Shaharlarda joylashagan uy va kvartiralar uchun 500 kv m dan oshgada		1,13	1,35	1,55	1,8
Jismoniy shaxslardan yoqilg'i iste'moli uchun soliq:					
Tarnsport vositalari uchun benzin va dizel yoqilg'isi, 1 litr uchun	145 so'm	175 so'm	200 so'm	240 so'm	265 so'm
Transport vositalari uchun suyultirilgan gaz, 1 kg	145 so'm	140 so'm	165 so'm	165 so'm	180 so'm
Ayrim turdagi mahsulotlar bilan savdo qilish uchun yig'im, 1 savdo oyi uchun, minimal ish xaqi miqdorida:					
Alkogol mahsulotlari bilan	5	5	5	5	5
Qimmatli tosh va qimmatli metallar bilan	3,5	3,	3,5	3,5	3,5
Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash maqsadida pullik xizmat ko'rsatish huquqi uchun yig'im , har oyga minimal ish hxaqi miqdorida	8	8	8	8	8

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlariga asosan tayyorlandi, PQ № 1245, 1449,1675, 1887, 2099

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir.

Ushbu zaruriyatni ongli tarzda mushohada etgan holda izlanishning asosiy yo'nalishlari belgilab olinganki, ular qatorida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- Mahalliy budjetlar imkoniyatlarining mazmuni, omillari va hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etish.
- Yangi sharoitlarda mahalliy budjetlarni «moliyaviy tenglashtirish» siyosati orqali boshqarishning dastaklari amal qilishi xususiyatlarini tahlil etish.
- Budjetlararo munosabatlar amaldagi mexanizmida mahalliy budjetlar imkoniyatlari shakllanishining omilli, kompleks tahlilini amalga oshirish.
- Mahalliy budjetlar rivojlanish istiqbollari belgilashda ular imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

Magistrlik disertatsiya ishini tayorlash mobaynida Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlarining amaldagi holati tahlil qilindi.

Mahalliy budjet daromadlarini ijrosi yaxshi natija berishida albatta reja ko'rsatkichlari alohida ahamiyat kasb etadi. Zomin tumani hokimining 2014-yil 12-yanvardagi 23-sonli qarori 2-ilovasiga asosan Zomin tumani mahalliy budjetining 2014-yilgi asosiy parametrlari quyidagi jadvalda aks ettirilgan (4- jadval)

Jadval ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2014-yilda Zomin tumani mahalliy budjetining ja'mi daromadlari miqdori 19740235,00 ming.so'm deb rejalashtirilgan.

Shundan to'g'ri soliqlar 12 573930,0 ming.so'm: yuridik shaxslardan olinadan daromad (foyda) solig'i 293884,0 ming.so'm, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar 318375,0 ming.so'm, yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha 2792460,0

ming.so'm, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 5041091,0 ming.so'm, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i 428120,0 ming.so'mdir.

4-jadval

**Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjetining
2014-yil uchun daromadlari²⁰**

№	Ko'rsatkichlar	ming.so'm
	Daromadlar hammasi	19740235,00
	1.To'g'ri soliqlar	12 573930,0
1.1.	yuridik shaxslardan olidan daromad (foyda) solig'i	293884,0
1.2.	savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	318375,0
1.3.	yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha	2792460,0
1.4.	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5041091,0
1.5.	tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	428120,0
	2. Egri soliqlar	7166305,0
2.1.	QQS	3471958,0
2.2.	Aksiz solig'i	X
2.3.	jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	1993763,0
	3. Resurs to'lovlari va mol mulk solig'i	1 745751,0
3.1.	mol-mulk solig'i	690908,0
3.2.	yer solig'i	2033244,0
3.3.	suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9990,0
	4.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	59220,0
	5.Boshqa daromadlar	72002,0

Egri soliqlar 7166305,0 mln.so'm: QQS 3471958,0 mln.so'm, transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq 1993763,0mln.so'm.

²⁰ Zomin tumani hokimining 2014-yil 12-yanvardagi 23-sonli qaroriga asosan tayyorlandi

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 1 745751,0 mln.so'm: mol-mulk solig'i 690908,0mln.so'm, yer solig'i 2033244,0mln.so'm, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 9990,0 mln.so'm.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 59220,mln.so'm. Boshqa daromadlar 72002,0 mln.so'm.

Quyidagi jadvalda 2013-yilda Zomin tumani mahalliy budjetining 2014-yilgi ko'rsatkichlari keltirilgan.(5-jadval)

5-jadval

**Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjetining
2013-yil uchun daromadlari²¹**

№	Ko'rsatkichlar	ming.so'm
	Daromadlar hammasi	16620840,00
	1.To'g'ri soliqlar	9875170,0
1.1.	yuridik shaxslardan olidan daromad (foyda) solig'i	257852,0
1.2.	savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	67970,0
1.3.	yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha	1004521,0
1.4.	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4327651,0
1.5.	tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	389523,0
	2. Egri soliqlar	6745670,0
2.1.	QQS	3602120,0
2.2.	Aksiz solig'i	X
2.3.	jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	1778429,0
	3. Resurs to'lovlari va mol mulk solig'i	928819,0
3.1.	mol mulk solig'i	531866,0
3.2.	yer solig'i	1396150,0
3.3.	suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7521,0
	4.Boshqa daromadlar	762870,0

²¹ Zomin tumani xokimining 2014 yil 12 yanvardagi 23 sonli qaroriga asosan tayyorlandi

Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlariga oid ko'rsatkichlar bilan tanishib chiqamiz. 2013-yilda Zomin tumani mahalliy budjetining ja'mi daromadlari miqdori 16620840,00ming.so'm.

To'g'ri soliqlar miqdori 9875170,0ming.so'm. Eng katta miqdorni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi 4327651,0 ming.so'm.

Egri soliqlar ja'mi 6745670,0ming.so'm. Asosiy miqdorga ega soliq qo'shilgan qiymat solig'idir 3602120,0 ming.so'm.

Resurs to'lovlari va mol mulk solig'i xususida quyidagicha 928819,0 ming.so'm. Bunda yer solig'i alohida ahamiyatga egadir 1396150 0 ming so'm.

Boshqa daromadlar 309378 ming.so'm.

2013 va 2014-yillarni solishtiradigan bo'lsak Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlari miqdorini oshganligini guvohi bo'lamiz.

Mahalliy budjet daromadlarida to'g'ri soliqlarning ulushi egri soliqlarga nisbatan ko'proqdir.

To'g'ri soliqlardan asosiy rolni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i o'ynaydi. Egri soliqlarni tarkibida esa qo'shilgan qiymat solig'i yetakchilik qilayotganligini aytish mumkin.

Ko'rib chiqilgan yillarda Zomin tumani mahalliy budjetiga subvensiyalar ajratilgan bo'lib ular ijtimoiy nafaqalar uchun va xalq ta'limi muassasalari ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov uchun yo'naltirishga maqsad qilingan. Dotatsiya ko'rinishidagi moliyaviy yordam ajratilmagan.

6- jadvalimizda 2013-2014-yilda Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning ulushini ko'rib chiqamiz (6-jadval). Jadval ma'lumotlari yuzasidan shuni aytish mumkinki, 2013-yilda ja'mi mahalliy soliqlar 3663065,0

ming so'mni, 2014-yilda esa 4777135,0ming so'mni tashkil etgan.

2013-yilda Zomin tumani mahalliy budjeti ja'mi daromadlarida mahalliy soliqlarning ulushi 22,4% ga teng.

**Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjetida
mahalliy soliqlarning ulushi²²**

№	Ko'rsatkichlar	2013-yil		2014-yil	
		ming.so'm	%	ming.so'm	%
	Daromadlar ja'mi	16620840,0	100	19740235,0	100
1.	Transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	1778429,0	10,7	1993763,0	10,1
2.	Mol-mulk solig'i	531866,0	3,2	690908,0	3,5
3.	yer solig'i	1396150,0	8,4	2033244,0	10,3
4.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	16620,0	0,1	59220,0	0,3
	Mahalliy soliqlar ja'mi	3663065,0	22,4	4777135,0	24,2

Shundan:

- transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq 10,7% ;
- mol-mulk solig'i 3,2% ;
- yer solig'i 8,4% dir.

2014-yilda mahalliy soliqlarning mahalliy budjetning ja'mi daromadlaridagi ulushi 24,2% bo'lib, 2013-yilga nisbatan 2,2%ga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

²² Zomin tumani xokimining 2014 yil 12 yanvardagi 23 sonli qaroriga asosan tayyorlandi

Shu jumladan: transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq 10,3%; mol-mulk solig'i 3,5%; yer solig'i 10,3%; obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 0,3%ga teng.

2013- 2014-yillar uchun Zomin tumani mahalliy budjet daromadlariga oid ko'rsatkichlarimiz tahlili natijasida shunday xulosa qilish mumkin, mahalliy soliqlarning ulushi ozgina ortgan, transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliqning ulushi 0,6%ga kamaygan, mol-mulk solig'i 0,3%ga ortgan, yer solig'i 1,9%ga oshgan.

7-jadval

2013-2014-yillarda Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjetiga ajratilgan subvensiyalar hajmi (ming.so'm)²³

№	Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil
1.	Daromadlar	16620840,0	19740235,0
2.	Subvensiya shundan:	37278213,0	42111703,0
	ijtimoiy nafaqalar uchun subvensiya;	8 637951,0	25640262,0
	xalq ta'limi muassasalari ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov uchun uchun subvensiya	30640262,0	34792926,0
3.	Dotatsiya	x	X

Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlarida 2013-2014-yillarda mahalliy soliqlardan yetakchilik o'rinni transport vositalari egalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq va yer solig'i egallagan.

Har bir mahalliy budjet uchun soliqlarni undirilish ko'rsatkichi asosiy hisoblanadi. Sababi, o'z vaqtida va to'g'ri undirilgan soliq budjet daromadlarini shakllanishiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

²³ Zomin tumani hokimining 2014-yil 12-yanvardagi 23-sonli qaroriga asosan tayyorlandi

Shu kabi yondoshuv mahalliy darajadagi yig'implarga ham xosdir.

Mazkur jadvalimizda 2013-2014-yillarda Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlari, maqsadli subvensiyalari hajmlari keltirilgan (7- jadval). Berilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, 2013-yilda Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlari 16620840,0ming so'mni, subvensiya mablag'lari ja'mi 37278213,0 ming so'mni, shundan: ijtimoiy nafaqalar uchun subvensiya 6 837951,0 ming so'mni; xalq ta'limi muassasalari ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov uchun uchun subvensiya 30640262,0 ming so'mni tashkil etgan. Dotatsiya 2013-yilda ajratilmagan.

2014-yil borasida quyidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Daromadlar 19740235,0 ming so'm, subvensiya mablag'lari 42111703,0 ming so'm, shundan: ijtimoiy nafaqalar uchun subvensiya 25640262,0 ming so'm; xalq ta'limi muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov uchun subvensiya 34792926,0ming so'mga teng.

Keyingi jadvalda Jizzax viloyati Zomin tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari berilgan.(8-jadval)

8-jadval

2013-2014-yillarda Zomin tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlar tushumlaridan ajratmalar normativlari (%)²⁴

№	Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil
1.	Yuridik shaxslarning foyda solig'i	100	100
2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar uchun yalpi daromadidan soliq	100	100
3.	Yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratma, mikrofirmalar va kichik korxonalar qo'shilgan holda	100	100
4.	Jismoniy shaxslar daromadidan soliq	100	85
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i	100	50

²⁴ Zomin tumani hokimining 2014-yil 12-yanvardagi 23-sonli qaroriga asosan tayyorlandi

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida, quyidagi xulosaga kelish mumkin, 2013-2014-yillarda Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlarini tartibga solish maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yori belgilangan.

Shu yillar davomida o'zgarish faqat jismoniy shaxslar daromadidan soliq va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjuddir. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq me'yori 2013-yilda 100% deb belgilangan bo'lsa, 2014-yilda 85%ni tashkil etgan. Qo'shilgan qiymat solig'i 2013-yilda 100%ni, 2014-yilda 50% miqdorida belgilangan.

Ayrim rivojlangan davlatlar mahalliy budjetida biriktirilgan daromadlari tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Kanada mahalliy budjetlari daromadlarining 40 foizini soliqlar, 12 foizini soliqsiz to'lovlar va 48 foizini subsidiyalar tashkil etadi.

Shvetsiyada mahalliy budjetlarning 70-80 %i biriktirilgan daromadlar xisobiga, 20-30 foizi xukumat dotatsiyalariga to'g'ri keladi. Soliqlarni asosiy qismi fuqarolar munitsipal daromad solig'iga to'ri keladi.

Buyuk Britaniyada dotatsiyalar 30 %ga yaqin bo'lib, qolgani mahalliy budjetlarning o'z daromadlari xisobga shakllantiriladi.

Frantsiyada mahalliy budjetlarning o'z daromadlari 70 %ni , xukumat tomonidan ajratiladigan mablag' 30 %ni tashkil qiladi.

AQShda mahalliy budjetlar daromadlarining 40 %ini yuqori budjetdan o'tkazmalar tashkil qiladi. Soliqli daromadlarining 70 % solikli daromadlarga to'g'ri keladi.

Budjet huquqi sub'ektiga tegishli mablag'lar, ya'ni yuqori budjetni chetlab o'tib, doimiy ravishda, qat'iy belgilangan ulushda yoki to'liqligicha tegishli budjetga kelib tushuvchi mablag'lar biriktirilgan daromad deyiladi.

Mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromadlariga mahalliy soliqlar va yig'imlardan tushumlar kiritiladi. Bu daromadlar shaharlarda 30-40 foizni, tumanlarda 10-20 foizni tashkil qiladi. Qolgan qismini tartibga soluvchi daromadlar tashkil qiladi.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rniga ko'ra biriktirilgan va tartibga soluvchi o'z navbatida yana guruhlanadi:

1. O'z daromadlari yoki biriktirilgan daromadlari:

- mahalliy soliq va yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar
- mahalliy mulkdan foydalanishdan daromadlar
- yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet davlatlardan tushgan

qaytarilmaydigan pul tushumlari

2. Tartibga soluvchi daromadlari:

- umumdavlat soliqlaridan ajratmalar
- budjet dotatsiyalari va subventsiyalari
- budjet ssudalari

Mahalliy budjetlar budjet qonunchiligiga ko'ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Ularning xaqiqatdagi taqchilligi bo'lishi mumkin emas.

Mahalliy moliyani shakllantirishning muammolaridan yana biri, bu hududlarni kompleks tarzda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni rejalashtirishda mahalliy hokimiyat organlari, ya'ni mahalliy budjet mablag'larini va ushbu hududda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'larini oqilona birlashtiruvchi dasturni ishlab chiqish hisoblanadi.

Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning kompleks rejasini amalga oshirish juda katta moliyaviy mablag'lar talab etadi.

Bunday tadbirlarni amalga oshirishni zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchun mahalliy budjet, tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'larini muvofiqlashtirish va to'plash zarur. Bu esa, o'z navbatida, hududlarda o'ziga xos yig'ma moliyaviy balansni ishlab chiqish vazifasini quyadi.

Har bir hududda yig'ma moliyaviy balans barcha moliyaviy rejalarni, ya'ni mahalliy budjet, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy balanslari, aholining pul

daromadlari va harajatlari balansi hamda boshqalarni birlashtirib, uni yaxlit va mukammal, yagona rejaga aylantirilishini taqozo etadi.

Ushbu omil esa alohida olingan har bir hududda (shahar, tuman, viloyat) mavjud barcha moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samaradorlik bilan foydalanish bo'yicha to'la ma'lumotga ega bo'lish va shu asosda, kompleks rivojlanish dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishni moliyaviy ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy budjet harajlarining keyingi yillarda ortishini yana shu bilan izohlash mumkinki, mahalliy budjetdan davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishning xajmi ortib bormoqda, o'rta maxsus o'quv yurtlarining xarajatlari va aholini ijtimoiy himoyalashga qarailgan xarajatlar sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Yana shuni qayd etishimiz lozim, oxirgi yillarda yangi turar-joy va madaniy –maishiy ob'ektlarni qurilishi ko'paymoqda, bu esa o'z-o'zidan ularni saqlash xarajatlarini oshishiga olib keladi. Mahalliy budjetning xarajatlari tarkibi alohida hududlarda bir xil bo'lmaydi, balki shu mintaqadagi turli darajada bo'lgan xo'jalik va idoralarning hajmiga bog'liq bo'ladi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda umumdavlat (fedyeral) soliqlardan foydalanishni tartibga solish. Xalqaro amaliyotda umumdavlat soliqlaridan markaziy va mahalliy hokimiyat organlari soliq manbalaridan alohida foydalanish, soliqdan kelgan tushumlarni taqsimlashda foydalanish va soliq manbalaridan birgalikda foydalanish usullari mavjud. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan, mahalliy budjetlar daromadlari va harajatlarini muvofiqlashtirish maqsadida, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar bo'yicha normativlar har budjet yili uchun alohida tasdiqlanadi. Mahalliy budjet daromadlari umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobi bilan birgalikda uning harajatlarini qoplamasa, u holda respublika budjetidan dotatsiya va subventsiya ajratiladi.

Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi jarayonlarning kuchayishi, dunyodagi iqtisodiy globallashtirish darajasining ortib borishi bilan moliyaviy qarorlar qabul

qilishda so'nggi ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, qayta ishlash va ularni chuqur tahlil etishni muhim ahamiyatga egaligidan dalolat byermoqda. Shundan xulosa qilish mumkinki, mamlakatdagi mahalliy va umumdavlat moliyasining holatini real baxolash bilan bir vaqtda, xorijiy mamlakatlarda yuzaga chiqayotgan moliyaviy jarayonlarni o'rganib, ular bilan uyg'unlashgan holda dinamik tarzda amal qilishi, biz yuqorida ishlab chiqqan takliflarning hayotiylik darajasini oshiradi, deb hisoblaymiz.

2.3. Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishning takomillashtirish yo'llari

Tartibga soluvchi daromadlar - bu yuqori budjetlardan quyi budjetga, ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish (balanslashtirish) maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuasidir. Tartibga solinadigan daromadlarga ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan barcha moliyaviy resurslar, ya'ni alohida umumdavlat soliqlaridan o'tkazmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar, yuqori budjetdan o'zaro hisob-kitob asosida olingan mablag'lar kiradi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalarining me'yorlari davlat qonunchiligi asosida belgilanib, ular Respublikamiz hududlari bo'yicha turlicha taqsimlangan. Buning asosiy sababi hududlarning notekis rivojlanishi, ulardagi iqtisodiy-ijtimoiy omillardir.

Umumdavlat daromadlari va soliqlari har yili qonun bilan belgilangan tartibda o'rnatilgan me'yorlar asosida tegishli budjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Tegishli ma'muriy-hududiy bo'linmaning budjeti uchun o'rnatiladigan mazkur me'yorlar asosan quyidagilarni e'tiborga olgan holda o'rnatiladi:

- hududlarning moliyaviy ahvoli hamda ularning o'z daromad bazalarining holatiga ko'ra;
- hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi va amal qilishiga ko'ra;
- hududlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narhlaridagi farqlarning mavjudligiga ko'ra;

- har bir hudud bo'yicha aholi soni, tarkibi va zichligi bo'yicha;
- tegishli hududda joylashgan budjet tashkilotlari va budjet mablag'larini o'z tasarrufiga oluvchilarning budjet mablag'lariga bo'lgan talabiga ko'ra.

Bugungi kunda umumdavlat soliqlaridan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslardan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan daromad solig'i kabilar bo'yicha mahalliy budjetlarga ajratmalar me'yorlari belgilanadi. Bulardan tashqari, yagona soliq, shuningdek, kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq, yagona yer solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqlar ham qonun bilan belgilangan tartibda va me'yorlarda Respublika budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Bizning fikrimizcha, umumiy tarzda yuqoridagi vaziyatning keyingi yillarda tarkib topganligini ijobiy baholash mumkin. Shu munosabat bilan mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini mustahkamlash masalasini, shularni hisobga olgan holda, ana shu yo'nalishda davom ettirish maqsadga muvofiqdir. (9-jadval)

Yuqoridagidek mahalliy budjetlar daromad bazalarining tartibga keltiruvchi daromadlari bo'yicha ham amalga oshirilgan. Quyidagi jadval ma'lumotlarida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi to'lovchi xizmat ko'rsatish korxonalirining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlarga ajratilishi keltirilgan. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar alohida turkum hisoblanib o'ziga xos turlarga ajratilgan, maishiy va boshqa xizmatlar ham xuddi shu tartibda tarkiblashtirilgan.

Hududlarning budjetdan amalga oshirilayotgan xarajatlarining yetarli daromadlar bilan ta'minlanmaganligi, mahalliy budjetlarni davlat tomonidan daromadlarni tartibga solishda birlamchi Respublika budjetida yig'ilgan daromadlarni bir qismini qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu maqsadda barcha davlatlar amaliyotida dotatsiya va subventsiyalardan foydalaniladi. Mahalliy budjet daromadlarining bu manbai mahalliy hokimiyat organlarida boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi.


2011-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligiga sezilarli va sezilarsiz ta'sir ko'rsatayotgan biriktirilgan daromadlardagi o'zgarishlar va tendentsiyalar²⁵

(% da)

№	Ko'rsatkichlar	Y illar				O'rta-chasi
		2011	2012	2013	2014	
1.	Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir etuvchilar guruhiga kiritilgan jami biriktirilgan daromadlarning mahalliy budjetlar jami daromadlaridagi salmog'i - shu salmoqning oldingi yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)	30,7 -	33,0 +7,5	32,9 -0,3	33,3 +1,2	32,5 +2,8
2.	Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir etuvchilar guruhiga kiritilgan biriktirilgan daromadlarning jami biriktirilgan daromadlardagi salmog'i - shu salmoqning oldingi yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)	91,1 -	94,6 +3,8	94,5 -0,2	93,3 -1,3	93,4 +0,8
3.	Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydiganlar guruhiga kiritilgan biriktirilgan daromadlarning mahalliy budjetlar jami daromadlaridagi salmog'i - shu salmoqning oldingi yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)	3,0 -	1,9 -36,7	1,9 -	2,4 +26,3	2,3 -3,4
4.	Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydiganlar guruhiga kiritilgan biriktirilgan daromadlarning jami biriktirilgan daromadlardagi salmog'i - shu salmoqning oldingi yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)	8,9 -	5,4 -39,4	5,6 +3,7	6,7 +19,6	6,6 -5,4
5.	Mahalliy budjetlarning jami biriktirilgan daromadlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
6.	Mahalliy budjetlar biriktirilgan daromadlarining mahalliy budjet-larning jami daromadlaridagi salmog'i - shu salmoqning oldingi yilga nisbatan o'zgarishi, (+, -)	33,7 -	34,9 +11,6	34,8 -0,3	35,7 +2,6	34,8 +4,6
7.	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Shuni inobatga olib taklif kiritishim mumkinki jismoniy shaxslarning daromad solig'i mahalliy soliqlar tarkibiga kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buni ijobiy tomoni undan iboratki, mahalliy budjetlar o'z hududlarida mazkur soliq obektini ko'paytirishi, yakka tartibdagi tadbirkorlikning rivojlanib borishi, binobarin, mahalliy budjetlarga to'lanadigan soliq va majburiy to'lovlar miqdorini oshirish uchun yanada ko'proq intilish yuzaga keladi. Mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim.



6-rasm. Mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi daromadlari²⁶

Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, bu mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o'z qaramog'idagi hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini


²⁶ O'zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni, 2000 y, 14 dekabr.

ko'paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini yurgizishda imkoniyat byerilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi.

Ammo mahalliy hokimliklarga soliq vakolatlarini berish bilan birga ularning aholi oldida hisobot berishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni ham hisobga olish kerak, aks holda berilgan vakolatlar ziyon keltirishi mumkin.

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlarining asosiy manbasi mahalliy soliq va yig'imlar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar va yuqori budjetlardan tushumlardir (budjet ssudalari va dotatsiyalari).

Har yili davlat budjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi. Umumdavlat soliklaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi solik daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Biroq bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini istisno qiladi.



7-rasm. Mahalliy budjetning daromad manbalari²⁷

Umuman olganda, mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlashda tartibga keltiruvchi daromadlar rolining keyingi yillarda

²⁷ O'zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni, 2000 y, 14 dekabr.

pasayayotganligini ijobiy baholash mumkin. Bunday tendentsiyaning tarkib topishi uzoq davrni talab etsada, uning tarkib topish sur'atlarini tezlashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash va uni mustahkamlashning asosiy yo'nalishi sifatida biriktirilgan va tartibga keltiruvchi daromadlar o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish e'tirof etilgan va bunga erishish uchun shu nisbatning tarkibida biriktirilgan daromadlarning salmog'ini oshirish lozimligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan. Bizning fikrimizcha, bu o'ta murakkab va muhim masala bo'lib, uning yechimini topish mamlakatimizda unga bag'ishlangan maxsus Dasturni yaratish (ishlab chiqish) va uni amalga oshirish doirasida sodir bo'lmog'i

“O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi to'g'risida”gi qonuning 3-moddasida budjet dotatsiyasi, budjet subventsiyasi va budjet ssudasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Budjet dotatsiyasi - o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan takdirda quyi budjetning xarajatlari Bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir.

Budjet subventsiyasi- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bila ajratiladigan pul mablag'laridir.

Budjet ssudasi- yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'dir. Ularning qo'shimcha daromad topish, o'z daromadlarini ko'paytirishga qiziqishlarini pasaytiradi, budjetlarni o'z daromad qismini bajarish imkoniyatlarini cheklabgina qolmay, moliyaviy nazoratning susayishiga sharoit yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan mahalliy budjetlarni kerakli mablag'lar bilan ta'minlash usuli sifatida dotatsiyadan voz kechish ham mumkin emas.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan me'yorlar yil sayin o'zgarib bormoqda, ayrim hududlarda ularning

nisbati o'zgarmagan, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati, Namangan viloyati, Surxandaryo viloyati, samarqand viloyati, Sirdaryo viloyati va Xorazm viloyatlarida soliqlardan ajratmalar bo'yicha me'yorlarning asosiy qismi 100 % ga teng bo'lgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni o'tgan 2012 yilga nisbatan 2013 yilda ba'zi soliqlar bo'yicha me'yorlar o'zgargan.

10-jadval

Mahalliy budjetlarni o'z-o'zini daromad bilan qoplash darajasi²⁸ (%da)

Hududlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49,2	46,7	49,2
Andijon viloyati	48,0	51,6	55,2
Buxoro viloyati	100,0	100,0	100,0
Jizzax viloyati	37,9	40,9	46,2
Qashqadaryo viloyati	100,0	100,0	100,0
Navoiy viloyati	100,0	100,0	100,0
Namangan viloyati	35,0	40,8	44,2
Samarqand viloyati	41,8	44,8	47,2
Surxondaryo viloyati	40,1	41,7	47,7
Sirdaryo viloyati	68,8	70,2	69,8
Toshkent viloyati	100,0	100,0	100,0
Farg'ona viloyati	100,0	100,0	100,0
Xorazm viloyati	53,2	53,4	52,6
Toshkent shahri	100,0	100,0	100,0
Jami	70,6	71,5	72,9

Ddotatsiyadan voz kechish maqsadida doimiy tushmaydigan daromad manbalaridan ajratmalarni oshirish ham mahalliy budjetlarni og'ir ahvolga tushirib qo'yishi mumkin. Shu sababli dotatsiyalarni aniq sharoitdan kelib chiqib, iqtisodiy

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

imkoniyatlari cheklangan hududlarga ajratish orqali ularning iqtisodiy imkoniyatlarini tenglashtirib borishga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

II-BOB BO'YICHA XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimiz budjet tizimida yildan-yilga mahalliy budjetlarning ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga o'tgan yillarda mahalliy budjetlar faoliyatining xuquqiy asoslari ta'minlanganligidan kelib chiqib, mahalliy budjetlarning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi o'rni ortib bormoqda. Mahalliy budjetlarda davlat islohotlarining amalga oshirishini to'liq ta'minlanishiga, xususan, mahalliy budjetlarda davlat ijtimoiy siyosatining xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatib berdi. Mamlakatimiz budjet amaliyotida mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlash va ularning rivojlanish istiqbollarini taminlashtirish jarayonida har qaysi manbaning alohida roli hamda qat'iyeligiga e'tibor berish mahalliy budjetlarni tartibga solish davlat siyosatida muhim jihat hisoblanadi. Moliyaviy ta'minot to'liqligini e'tiborga olgan holda davlat tadbirlarida nazarda tutilgan daromad manbalarining har qaysisi rolini inkor etmagan holda ularning barqarorligini hamda budjet majburiyatlari ijrosi bilan mutanosibligini ta'minlash chora-tadbirlarini belgilash zarurdir. Shu ma'noda mahalliy budjetlarni boshqarish davlat siyosatining ijobiy jihatlari hamda muammolari xaqida mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizda alohida to'xtalib shunga etiborni ko'proq qaratdik.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODYERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishdagi muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari


Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub negizini mamlakatimizda istiqomat qilayotgan aholining erkin va faravon turmush tarzini ta'minlash hisoblanadi. Yuqoridagi islohotlar natijasi xaqida Prezidentimiz I.A.Karimov: “Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2010 yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizgacha, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 7 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir. Shu borada o'tgan yili Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganini ta'kidlash zarur²⁹” – deya ta'kidlab o'tdilar. Shu bilan birga “Inqirozga qarshi choralar dasturi”da konkret bo'limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar, mazkur chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni belgilab berdilar.

Birinchidan – korxonalarni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. Shunga ko'ra, ushbu tarmoqlardagi korxonalarni bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (8-rasmga qarang).

Ma'lumki, mamlakatimiz yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish

²⁹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // – T.: O'zbekiston. 2011. – 48 b.

bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Shu o'rinda mazkur tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.




8-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari³⁰

Ikkinchidan – joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan:

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni budjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2009. 56-bet

▪ banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, budjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va pferentsiyalar berish (9-rasmga qarang).



9-rasm. Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash choralari³¹

Uchinchi – qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish.

To'rtinchi – elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish.

Beshinchi – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. – T: Iqtisodiyot. - 2010.

quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

“Inqirozga qarshi choralar” dasturini amalga oshirilayotgan bu chora-tadbirlar natijasi o'laroq aytish mumkinki, iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bugungi kunda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mahalliy soliqlar va yig'imlar salmog'ini oshirishning yagona yo'li mahalliy hududlarda ishlab chiqarish tarmog'i xususan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsion faoliyatni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish kabi chora - tadbirlarni amalga oshirishdir. Bunda esa respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi investitsiyalarni jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l berish hamda ularni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish lozim bo'ladi.

Bizga ma'lumki, hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

Nazariy tahlillarimizga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda mahalliy soliqlar amal qilishida hali bir qator muammolar mavjuddir. Ushbu bandda ana shu mahalliy soliqlar bilan bog'liq ayrim muammolar va ularni hal etish masalalari xususida to'xtalib o'tamiz. Bu o'rinda avvalo mahalliy soliqlar ichida eng katta mavqeini egallovchi mol-mulk solig'ini takomillashtirish bilan bog'liq fikrlarni keltiramiz.

Bugungi kunda mol-mulk solig'i davlat budjetidagi hissasi yuqori bo'lmasada to'g'ri soliq sifatida korxona, tashkilotlar moliya-xo'jalik faoliyati katta ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda mol-mulk solig'idagi eng asosiy muammo bu uning soliq stavkasi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, mol-mulk solig'i stavkasi proportsional (teng ulushli) tartibda belgilangan bo'lib, bunda soliq to'lovchilar ixtiyoridagi mol-mulk ob'ektini hajmi, fondlarni fond qaytimi, fond sig'imi, yalpi tushumdagi hissasi, ularga tegishli amartizatsiya summalari ko'p holatlarda soliqqa tortish jarayoni bilan uzviy bog'liqligi amalda ko'rinmaydi. Shu sababli, mol-mulk solig'i stavkasini belgilashda ushbu ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tartibda belgilash lozim deb hisoblaymiz. Biroq, tabaqalashtirishda asosiy mezon sifatida tarmoqlar korxonalarining fond sig'imi darajasini, yoki asosiy fondlarning eskirish so'mmasini bexud asosiy vositalari qoldiq qiymatiga nisbatan fond qiymati darajasini olish mumkin.

Agar, fond sig'imi darajasiga nisbatan olinadigan bo'lsa, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va qayta ishlash korxonalari uchun soliq stavkasini nisbatan yuqori darajada belgilashda to'g'ri keladi. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq stavkasi chet mamlakatlarda, masalan Rossiya Fedyeratsiyasida fedyeratsiyaning sub'ektlari bo'lgan davlat organlari tomonidan korxona faoliyatining turiga qarab belgilanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mol-mulk solig'i stavkasini o'rtacha miqdori taxminan 1-2 foizni tashkil etadi. Masalan, Germaniyada jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i soliqqa tortiladigan mulk qiymatining 0,5 foizini, korporatsiyalar uchun 0,6 foizni tashkil qiladi. Mol-mulklar qiymati daromadlar yoki mabalg'larning aylanishi kabi keskin tebranishlarga ega bo'lmaganligi sababli mol-mulk solig'i doimiy ravishda har uch yilda hisoblanadi.

Hozirgi kunda asosiy vositalarni sotib olishda tegishli qo'shilgan qiymat solig'i asosiy vositalarning dastlabki (boshlang'ich) qiymatiga kiritilmoqda. Buning asosiy sababi asosiy vositalar materiallar kabi oborotda ya'ni aylanish tezligi kam bo'lganligi bilan izohlanadi. Biroq, masalaning ikkinchi tomoni ham

mavjuddir. Ya'ni, qo'shilgan qiymat solig'i asosiy vositaning dastlabki qiymatiga kiritilganligi bois mol-mulk solig'i ob'ektni sun'iy ravishda oshirib yuboradi.

Natijada qo'shilgan qiymat solig'i mol-mulk solig'i orqali ikki marta soliqqa tortilib qolinadi. Shundan kelib chiqib, mol-mulk solig'ini ob'ektini kamaytirish maqsadida sotib olingan asosiy vositalarga tegishli QQS asosiy vositalarning amortizatsiya me'yorlariga muvofiq normativ xizmat qilish muddati davomida mahsulot tannarxiga olib borish lozim va asosiy vosita realizatsiya qilinganda QQS qayta hisoblanmasligi zarur. Mol-mulk solig'i stavkasini bugungi kundagi proportsional tartibda belgilash soliqlarni adolatlilik tamoyiliga har vaqt ham mos kelavermaydi. Bizningcha mol-mulk solig'i stavkasini tabaqalashtirish ularni eskirish summasiga nisbatan yoki ularni qoldiq qiymatiga nisbatan qo'llanilishi lozim deb hisoblaymiz. Soliq stavkasi tabaqalashtirilgan tarzda shunday joriy qilinishi kerakki, buni natijasida korxonaning ortiqcha fondlarga egalik qilish va ulardan samarasiz foydalanish korxonaga sezilarli darajada zarar yetkazishi kerak.

Mol-mulk solig'i bilan bog'liq yana bir muammo bu jismoniy shaxslar mol-mulkidan soliq undirishga ta'lluqlidir. Ma'lumki, 2010 yil 24 dekabrda O'zbekiston Respublikas Prezidentining 1449-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulk qiymatini aniqlashda, agar, mol-mulk qayta baholanmagan bo'lsa Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 8030,0 ming so'm miqdoridagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilindi.

Mahalliy soliqlar takomillashtirish bu faqat bu soliq turlari bo'yichagina emas, balki ularni mahalliy soliqlar va budjetlarga kelib tushishini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham quyida mahalliy soliqlar va mahalliy budjetlar o'rtasidagi muvofiqlik, ularga doir huquqiy aktlar xususida to'xtalamiz.

Ma'lumki, Soliq kodeksi qabul qilinishiga qadar amalda bo'lgan "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi qonunda mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha mahalliy hokimiyatlarning huquqlari va majburiyatlari aks ettirilgan edi. 2008 yilning boshidan kuchga kirgan Soliq kodeksida esa bu holatlar o'z aksini topmagan. Binobarin, Soliq kodeksining 23-moddasida mahalliy soliqlar turlari

keltirib o'tilgan. Bulardan ko'rinadiki, bugungi kunda mahalliy hokimiyatlarni vakolatlari kengaytirilayotgan bir vaqtida ularni muhim moliyaviy resurslari manbai bo'lgan mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etish bilan bog'liq yangi qonunni qabul qilinishiga katta ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu qonun o'z navbatida, Soliq kodeksi, Budget tizimi to'g'risidagi qonunlar bilan muvofiqlashtirilgan bo'limi lozim deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda mahalliy soliqlardan tushayotgan daromadlar mahalliy budjetlarning daromadlarida katta salmoqqa ega emas. Bizning fikrimizcha bu nafaqat mahalliy soliqlarni joriy qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik bilan balki mahalliy budjetlarni daromadlarini tartibga solishda qo'llanilayotgan amaliyot bilan bog'liqdir. Umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solish maqsadida ajratmalar ajratish foizini viloyatlar va yillar bo'yicha o'zgarib turishi, undan tashqari mahalliy budjet xarajatlarini moliyalashtirishni ularni daromadlar rejasini bajarilishi bilan bog'lanmaganligi natijasida mahalliy hokimiyatlarni budjet daromadlarini oshirib borishdagi iqtisodiy qiziqishini cheklab qo'ymoqda.

Mahalliy budjetlarni tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shu narsani ko'rsatadiki, haligacha eski mexanizmdan qo'llanib kelinmoqda, ya'ni soliqlarni ishonchli turlari avvalom bor markaziy (davlat) budjetiga yig'iladi, so'ngra uning ma'lum foizi mahalliy budjetlarga xarajatlarni qoplashga biriktirilgan daromadlari yetmasa ajratma sifatida har yili har xil foizda qoldiriladi. Bu mexanizm mahalliy hokimiyatlarni biriktirilgan daromadlarini yil sayin ko'paytirib borishga manfaatini uyg'otmaydi. Yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, davlat soliqlaridan ajratma darajasi belgilanayotganda ularning ulushi budjet daromadlarini qancha qismiga teng kelishiga e'tibor qilinmaydi.

Shuning uchun bizning fikrimizcha, umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan foizlar belgilanayotganda hech bo'lmaganda 5 yilga o'zgarmas stavkada belgilanishi lozim. Bundan tashqari har bir umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan foiz miqdori bu soliqdan tushadigan tushumni ulushi budjet daromadlarini $\frac{1}{3}$

qismidan oshmasligi shart deb hisoblaymiz. Shundagina mahalliy hokimiyatlarni iqtisodiy manfaatdorligi oshadi.

Mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida (tumanlarda) zaxira fondlarini tashkil qilish. Bu fondlar asosan hududni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq ko'zda tutilmagan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tashkil qilinib, bu fondlarning budjet daromadlari sifatida mahalliy budjetdan belgilangan miqdorda ajratiladigan mablag'lar hamda chetdan jalb qilingan har xil budjet daromadlaridan foydalanish mumkin.

3.2. Iqtisodiyotni modyernizatsiyalash sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirishning takomillashtirish yo'llari

Bugungi kunda jaxon xamjamiyatida muammo bo'lib turgan bir paytda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatning budjet-soliq siyosatini samarali tashkil etish bo'yicha bir kator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Mahalliy budjetlarning daromadlari esa asosan umumdavlat soliqlaridan hamda mahalliy soliqlar va yig'implardan shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining bir qismi, ya'ni jismoniy shaxslardan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz mahalliy budjetlar o'rtasida belgilangan me'yorlar bo'yicha har yili qonuniy yo'l bilan hukumat tomonidan o'rnatiladi.

Umumdavlat soliqlarining boshqa turlari ham mahalliy budjetlarning daromad bazalarini mustahkamlash maqsadida mahalliy budjet daromadlariga to'liq hajmda kiritiladi.

Bulardan tashqari, mahalliy budjetlarning daromadlari tarkibida mahalliy soliq va yig'implar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- mulk solig'i, yerl solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan belgilangan soliq.

- savdo qilish huquqini byeruvchi yig'im, respublikada ishlab chiqariladigan alkogolli maxsulotlar va spirt, o'simlik yog'i, kir sovunga aksiz solig'i bo'yicha yig'imlar.

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish uchun yig'im;

- avtotransport turar joylari uchun yig'im;


- ododonlashtirish va infratuzilmalarni rivojlantirish solig'i;

- boshqa yig'imlar.

Shuni ta'kidlash kyerakki, mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllantirishda asosan o'z daromadlari bo'lgan mahalliy soliqlarga tayanish lozim. Lekin O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlarining holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mahalliy soliqlar va yig'implarning mahalliy budjetlar daromadlaridagi salmog'i o'rtacha 18-20 foizni tashkil qilgan. Shundan 6 foiz atrofida yerl solig'i, 4-5 foizini mulk solig'i, 1.5-2 foizini infratuzilmani rivojlantirish solig'i, 7-8 foizini boshqa soliq va yig'imlar tashkil qilgan. Bundan tashqari mahalliy budjet daromadlarini mustahkamlash, budjet bo'g'inlari orasidagi qarama-qarshi moliyaviy oqimlarni qisqartirish va ortib borayotgan mahalliy budjet xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan bojxona bojlari, suv resurslari uchun soliqlar bo'yicha tushumlarni to'liq hajmda mahalliy budjetlarga qoldirish ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, shuni takidlash mumkinki, davlat budjetining tartibga soluvchi daromadlarining mavjud bo'lishi va amal qilishi mahalliy budjetlar uchun nihoyatda muhimdir. Jahon adabiyoti amaliyotida soliqlarning budjetlar o'rtasida taqsimlash muammolarini hal qilishning quyidagi yo'llari mavjud:

Umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlarga ajratmalarning me'yorlari har bir budjet yilida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining keyingi budjet yili uchun "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahmini va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi tegishli qarorlari bilan belgilanadi.



10-rasm. Budjet daromadlarining budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi³²

1. soliqlarni tegishli budjet pog'onalariga biriktirish;

- fedyerativ davlatlarda - fedyeral, mintaqaviy va mahalliy budjetlar bo'yicha;
- unitar davlatlarda - markaziy va mahalliy.

Bunda har bir boshqaruv darajasiga soliqlarni joriy qilish xuquqi byeriladi va ular bo'yicha tushumlar yuz foiz shu boshqaruv organlariga tegishli budjetlarga o'tkaziladi.

³² Tadqiqot ishni yozish davomida talaba tomonidan tuzilgan.

2. soliqlarni budjet zvenolari o'rtasida ulushli taqsimlash.

3. soliq solish bazasidan birgalikda foydalanish (soliqlarga ustamalar yoki qo'shimcha soliqlar).

4. soliqqa tortish bo'yicha huquqlarning mos kelishi.

O'zbekiston Respublikasida daromadlarning budjetlar o'rtasida chegaralashning birinchi ikki usuli soliqlar va daromadlarning budjet zvenolari bo'yicha taqsimlash tizimi birlik va mustaqillik tamoyillariga qat'iy asoslanishi kyerak.

Hozirgi kunda Respublika hududidagi barcha rezident-yuridik shahslar, jismoniy shahslar, barcha soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini quyidagi chizma asosida kuzatishimiz mumkin.

1-Umumdavlat daromadlari to'lig'icha Respublika budjetiga kelib tushadi, markaziy budjetning daromadi hisoblanadi va markazlashgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, boshqaruv, ekologik chora-tadbirlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi.

2-Budjetning 2-3-4-5 turkumlari daromadlaridan tushumlar dastlab respublika budjetiga tushib, so'ng Vazirlar Mahkamasining tegishli yil uchun qarorlari bilan o'rnatilgan me'yorlarga asoslanib mahalliy budjetlarga ajratmalar qilinadi.

3-Mahalliy soliqlar mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbai bo'lib, ular u yoki bu mahalliy budjetga biriktiriladi va to'liq shu budjetlarga tushishi ko'zda tutiladi.

4-Mahalliy yig'implar ham biriktirilgan daromadlar tarkibiga kiradi va mahalliy budjetlarga to'liq tushadi. Ularning mahalliy soliqlardan farqi shundaki, mahalliy soliqlarning tarkibi, stavkalari, ob'ektlari davlat tomonidan qonuniy yo'l bilan belgilab qo'yiladi. Mahalliy yig'implarni esa mahalliy boshqaruv organlari o'zlari mustaqil belgilashlari, miqdorlarini aniqlashlari va bekor qilishlari mumkin.

Respublikamiz budjet tizimida olib borilayotgan iqtisodiy isloxotlar o'z navbatida mahalliy budjetlar ijrosini samarali olib borishga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning budjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Bu borada Prezidentimizning fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir: «Davlat budjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy budjetlarni mustaxkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, budjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy budjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda budjet intizomini mustaxkamlaydi».

Prezidentimiz I.A.Karimovning fikr-mulohazalaridan va budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning, hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi mavqeini yanada oshishiga sabab bo'layotgan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjetga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga va rag'batlantirishni ta'minlashning zarurligi. Hxaqiqatdan ham, mahalliy budjet xarajatlarini amalga oshirishda bir qator kamchiliklar mavjud. Xususan budjet mablag'lari hisobidan sotib olinadigan tovarlar bahosini sun'iy ravishda oshirish budjet mablag'larini maqsadsiz ishlatish hollari uchramoqda;

- aholini ijtimoiy himoya qilish masalasining ustivorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish - bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustivor yo'nalishi sifatida tan olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyillaridan biri - aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shuning uchun ham aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan to'lovlar hajmi oshib bormoqda;

- mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan tadbirlarning oshib borishi, masalan 1994 yildan boshlab mahalliy budjetlar tomonidan oldingi yillarda Respublika budjeti hisobidan moliyalashtirilgan kadrlar tayyorlash, ya'ni o'rta

maxsus o'quv yurtlari xarajatlarini moliyalashni amalga oshirilishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari davlat qo'yilmalarining mahalliy budjetlardagi hajmi ham oshib bormoqda.

Mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish, mahalliy hokimiyat organlarini ushbu budjetlarni tuzish, ijro etishdagi huquqlarini kengaytirish bilan bog'liqdir. Ko'p davlatlarda, jumladan, Frantsiyada budjetlar ijrosi Moliya Vazirligining tarkibiga kiruvchi «Davlat xazinasini» boshqarmasi tomonidan olib boriladi. Budjet ijrosi davomida tushgan daromadlar va belgilangan yo'nalishda ularni xarajat qilish ushbu boshqarma tomonidan olib boriladi. Budjet ijrosi davomida boshqarmaga, xazinada mavjud bo'lgan mablag'larni, harakatda bo'lgan bank foizlari darajasida bank muassasalariga kredit mablaglari sifatida sotish huquqi qonun asosida belgilangan. Bu o'z navbatida vaqtincha bo'sh turgan budjet mablag'laridan samarali foydalanish, qo'shimcha daromad tushirish, moliyaviy bozorga ta'sir etish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida ham mahalliy budjetlar ijrosi davomida mahalliy budjetlarda mavjud bo'lgan bo'sh mablag'larni qisqa muddatlarga (budjet yili chegarasida), bank muassasalariga sotish imkoniyati mavjud. Bu bir vaqtning o'zida mahalliy hokimiyatlarning mahalliy budjetlarni bajarishdagi ma'suliyatini oshirish, ularni shu sohadagi mustaqilligini kengaytirish bilan birga olib borilishi kerak.

Mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismini soliqlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi, shu sababli soliq tizimi fiskal funktsiyasining kuchayishi, korxonalar moliyaviy ahvolidan og'irlashuviga olib keladi. Shuning uchun so'nggi yillarda respublikada soliq tizimining rag'batlantiruvchi vazifasini oshirishga, korxona va tashkilotlarning soliq yukini kamaytirish siyosati olib borilmoqda. 2003 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 567-sonli «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va 2004 yilga mo'ljallangan Davlat budjetining ko'rsatkichlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, korxona va tashkilotlar 2004 yildan e'tiboran daromad (foyda) solig'ini 18 foizlik stavka bilan to'lay boshladilar. Ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni

ko'paytirish, chet el kapitali kirib kelishini rag'batlantirish maqsadida soliqlardan imtiyozlar saqlab qolindi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan yana biri - bu joylarda aholining iqtisodiy aktivligini oshirishga imkoniyatlar yaratish, shuningdek jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan olayottan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirib borish bilan bog'liqdir. Jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadini soliqqa tortish stavkalari mahalliy hokimiyatlar tomonidan mustaqil o'rnatiladi. Bunda eng avvalambor stavka o'rnatishda barcha yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun teng sharoit yaratish, daromadlarni to'lik soliqqa tortilishini ta'minlash zarurdir. Shuningdek, ushbu soliq stavkalarini inflyatsiya darajasiga karab o'zgartirib borish maqsadga muvofiqdir.

«Mahalliy soliqlar va yig'img'risida»gi qonunning qabul qilinishiga qaramasdan, mahalliy hokimiyatlar, mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirishdagi imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmayaptilar. Mahalliy soliqlardan tushayotgan daromadlar mahalliy budjet daromadlarida imkoniyatdagidan past salmoqqa egadir. Bu nafaqat mahalliy soliqlarni joriy qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik bilangina emas, balki mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishda qo'llanilayotgan amaliyot bilan ham bog'liqdir. Umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solish maqsadida ajratmalar ajratish foizining viloyatlar va yillar bo'yicha o'zgarib turishi, undan mahalliy budjet hokimiyatlarini moliyalashtirishda ularning daromadlar rejasini va bajarilishi bilan bog'liqligi natijasida mahalliy hokimiyatlarni budjet daromadlarini oshirib borishdagi iqtisodiy qiziqishlarini cheklab qo'ymoqda. Budjet ijrosi davomida, mahalliy budjetlarni daromadlar rejasini o'zgartirish orqali mahalliy budjetlar tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlarini daromadlar bilan ta'minlash amaliyotidan voz kechish lozim. Eng asosiysi, budjet daromadlarini rejalashtirishda xududning soliqlarni yig'ish imkoniyatini to'g'ri belgilash muhimdir. Bunda moliya organlarini budjet daromadlari tushishi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini

muvofiglashtirishdagi huquqlarini kengaytirish lozim, deb hisoblaymiz. Mahalliy budjetlar daromadlari rejasining bajarilmaganligi natijasida tushmay qolgan daromadlar o'zni, faqatgina yuqori budjetdan byeriladigan qarzlar hisobiga qoplanishi lozim. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar foizi, hech bo'lmaganda 8-10 yilga o'zgaras bo'lishi kerak, bu orqali esa mahalliy hokimiyatlarni ushbu daromadlardan (soliqlardan) tushadigan daromadlarni ko'paytirib birishdagi manfaatdorligi oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy rivojlanishning hamda mahalliy budjetlar daromadlari samarali ijrosining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ya'ni korxonalarni ishga tushirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy masalalarni, bandlikni ta'minlash orqali aholi daromadlarini oshirish natijasida ijtimoiy masalalarni hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadbirkorlikni rivojlantirish, budjet daromadlarini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda ayniqsa o'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash katga ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mahalliy hokimiyatlarni o'zlariga tegishli xududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini oshirish maqsadida, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar mahalliy budjetlar ixtiyoriga berilgan.

Mahalliy budjetlar daromad bazasini yanada mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri - mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini oshirishdan manfaatdorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mulkka, yerga, resurslarga soliq solish va yuqorida ko'rsatilgan boshqa turdagi tushumlar alohida o'rin tutadi.

Mahalliy budjetlarni mustahkamlashning yana bir muhim manbasi-jismoniy shaxslar daromad solig'ini mahalliy budjetlarga biriktirib qo'yilishidir. Shuningdek, soliqlar qatorida soliqsiz yig'imlar ham budjetlarning muhim manbasi bo'lib qolishi kyerak. Chunki, soliq yukini oshirish chegaralanganligini hisobga olsak, bu muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirishning imkoniyatlaridan yana biri, bu mahalliy hokimiyatlarning budjetlariga qarz mablag'larini jalb qilishning qonuniy asoslarini yaratish bilan

bog'liqdir. Bunda mahalliy hokimiyatlar tomonidan mahalliy obligatsiyalarni, mahalliy veksellarni chiqarish ko'zda tutilmoqda. Bu, albatta, o'z navbatida boshqariladigan faoliyat bo'lishi kyerak.

III BOB BO'YICHA XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, horijiy tajribalarning quyidagi ijobiy tomonlari O'zbekiston Respublikasida budjetlararo munosabatlarni hal etish uchun foydalanilishi mumkin: markaziy va mahalliy hukumat organlari o'rtasida tegishli funktsiyalar va mablag'lar manbalarini qonuniy tarzda aniq va barqaror taqsimlash; mahalliy budjetlarni daromadlari umumiy hajmida o'z daromadlarining 50% dan kam bo'lmagan manbalari bilan ta'minlanishi; vertikal moliyaviy tenglashtirishni tashkil etishda "qoplash kvotalari" deb nomlangan vositadan foydalanish; mahalliy sharoitda umummilliy dasturlar amalga oshishi uchun maqsadli subsidiyalarni saqlab qolish, hududlar moliyaviy potentsialini tartibga solish maqsadi uchun esa odatdagi dotatsiyalar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bulardi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi chora-tadbirlar mahalliy budjetlarda bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, O'zbekiston iqtisodiyotida yanada sezilarli qator ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Zero, islohotlardan ko'zlangan bosh maqsadimiz ham yurt ravnxaqi va aholi farovonligiga yerishishdan iboratdir. Mahalliy budjetlarning samarali ijrosini ta'minlash hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti baro'arorligiga yerishish uchun davlatning budjet-soliq siyosatida barcha hududlarning mavjud muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga imkon byeruvchi jihatlarini kuchaytirish lozim. Shu sababli davlatning budjet-soliq siyosati istiqbollari belgilashda hududiy omillar ta'siriga alohida e'tibor qaratish zarur.

XULOSA

Amalga oshirilgan izlshaniimiz natijasida mahalliy budjetlar daromadlarini mustaxkamlash va ular imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari xususida qator ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelindi, bu borada mavjud muammolar aniqlandi va ularni hal etish yuzasidan takliflar tizimi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida budjet amaliyoti hozirgi holatining tahlili mahalliy budjetlar imkoniyatlari xususida quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. O'zbekiston Respublikasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hamda tabiiy-geografiy joylashuvidagi xususiyatlaridan kelib chiquvchi tafovutlar davlatning mahalliy budjetlarni boshqarish siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadiki, buning natijasida mahalliy budjet bo'g'inlari o'rtasida budjet majburiyatlarining taqsimoti mezonlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Mazkur tafovutlar turli hududlar budjet majburiyatlarining bir muncha yuqori va ayrimlarida esa, hatto, moliyaviy imkoniyatlarning taqsimotidagi keskin yetishmovchilikni keltirib chiqaradiki, ushbu holatlar davlatning mahalliy budjetlarni boshqarish siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Mahalliy budjetlarning budjet tizimida tutgan o'rni va ahamiyati amaldagi budjet qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari oro'ali yaqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunida ushbu asoslar timsolida mahalliy budjetlar imkoniyatlari shakllanishi va ularni samarali boshqarish yo'nalishlari uchun zamin yaratilgan. Biroq mamlakatimizda budjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitidagi hamda budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirlari va ularning real ijrosi xali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda.

3. Mahalliy budjetlar imkoniyatlari tushunchasining mohiyati nafaqat ularning budjet loyihasida ko'zda tutilgan daromad qismining hajmi bilan yoki nafaqat mahalliy budjetlar daromadlari ijrosi bilan va hatto hududlar soliq-moliyaviy qudrati miqdori bilan to'liq yoritib berila oladi, balki mazkur

tushunchaning moliyaviy-iqtisodiy tabiati va sifat tavsifi, avvalo, ular zimmasidagi majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida ijro etilishini hamda xarajat vakolatlari taqsimotiga ko'ra ijro etilgan budjet majburiyatining moliyaviy ta'minoti orqali aniq ifoda etiladi.

4. Mamlakatimizda 2001 moliya yilidan boshlangan budjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitida mahalliy budjetlar daromad bazasining shakllanish manbalari va ularning moliyaviy tabiati tubdan o'zgardi. Alohida budjet bo'g'ini faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotida ularga nisbatan ilgari amal qilgan dotatsion rejim mahalliy budjetlarni «moliyaviy tenglashtirish» siyosati orqali boshqarish amaliyoti bilan almasldi. Buning natijasida mahalliy budjetlar bo'g'inlari faoliyatiga nisbatan ma'lum cheklovlar qo'yildi. Mahalliy budjetlarni boshqarish siyosatidagi mazkur yondoshuv ular huquq va majburiyatlarining o'sib borish qonuniyati kuzatilayotgan hozirgi sharoitda hududlarda iqtisodiy faollik va mablag'lardan samarali foydalanishni rag'batlantirish choralarining hisobga olinishini ta'minlaydi.

5. Mahalliy budjetlar daromad bazasining shakllanish manbalari amaldagi budjet qonunchiligida quyidagilarni o'z ichiga olmoqda: o'z (biriktirilgan) daromadlari, tartibga soluvchi daromadlar, moliyaviy tenglashtirish siyosati orqali ko'zda tutilgan respublika budjetidan ajratmalar (budjet subventsialari va budjet dotatsialari), o'zaro hisob-kitoblar tarzida kelib tushuvchi mablag'lar, budjet ssudalari, boshqa manbalar.

6. Mahalliy hudud iqtisodiyotining o'aror topishi va uning moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi uchun budjetni mustaqil shakllantirish huquqigina emas, balki uni bosho'arish huquqi ham zarur.

Mahalliy hudud iqtisodiyotini soliq mexanizmi asosida tartibga solish bo'yicha:

- birinchidan, hududiy o'z-o'zini moliyaviy bosho'arishda soliqlarni me'yoriy tartibga solish;
- ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida o'aralishi;

- uchinchidan, mustaqil hududiy iqtisodiyotda iqtisodiy islohotlar tizimi;
- to'rtinchidan, hududiy iqtisodiyotda mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati muhim omil sanaladi.

7. Mahalliy budjetlar biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlarining manbai bo'lmish soliqlarning hududlar iqtisodiy salohiyatlariga bog'liqligi davlatning budjet-soliq siyosatidagi yaxlitlikni ta'minlash zaruriyatini asoslaydi. Soliq amaliyotidagi va budjet amaliyotidagi ushbu nomutanosibliklar mahalliy budjetlarni bosho'arish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

8. O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan mamlakatlarning tajribalari tartibga soluvchi soliqlarni tao'simlashda rag'batlantirmaydigan ta'sirni sezilarli darajada qiso'artirishga, ularning mahalliy budjetlarga ajratmalari faqat mustahkam yagona me'yorlar asosida ajratilishi ta'minlangandagina amalga oshishiga guvohlik beradi. Mahalliy hokimiyatlar ularning hududida yig'ilgan soliqlarning qonunchilik bilan tasdiqlangan qismi ma'lum bir vao't davomida va bir maromda mahalliy budjetga tushishini bilsalar, u holda ular ushbu soliqlarni to'liq yig'ilishini ta'minlash uchun qo'llaridan kelgan barcha ishlarni amalga oshiradilar. Amaliyotni ko'rsatishicha, ushbu holatlarda qo'llaniladigan ma'muriy choralar mahalliy hokimiyatlarning o'zlarini manfaatdorligi o'rnini bosa olmaydi.

Mazkur umumiy xulosalar dissyertatsion tadqiq natijalari asosida hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi budjet amaliyotida mavjud bo'lgan o'ator muammolarni aniqlashga va ularni hal etishga o'aratilgan tegishli takliflar tizimini ishlab chiqish imkonini byerdi:

1. Mahalliy budjetlar biriktirilgan daromadlari ko'lamining pastligi va hududlararo notekisligi hamda tartibga soluvchi daromadlarning joriy maqsadlargagina asoslanishi ular imkoniyatlari shakllanishiga salbiy ta'sir etayotganligi mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromadlari bazasini yanada mustahkamlash maqsadida ushbu manbani quyidagilar hisobiga to'ldirish lozim:

- mahalliy mulkni boshqarishdan olinadigan daromadlar;

- munitsipal qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va sotishdan olinadigan daromadlar;

- hududga hayriya maqsadlarida qo'yilgan moliyaviy aktivlardan iborat daromadlar.

2. Mahalliy budjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotiga o'tilayotgan hozirgi davrda ular imkoniyatlari asoslarining nisbatan barqarorlashtirishga yerishish maqsadida mahalliy budjetlar daromadlari shakllanishida tartibga soluvchi daromadlar barqaror me'yorlarini kamida 5 yil muddatga o'zgarmas tarzda belgilash zarur.

3. Magistrlik dissertatsiya ishi jarayonida olib borilgan tahlillarga asoslanib iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega bo'lgan respublika viloyatlarining budjet daromadlarini ortiqcha bajarilishi evaziga shakllangan summalarni 10:90 nisbatda taqsimlash taklif etiladi. Bu tadbir quyidagilarga yo'naltirilgan:

- daromadlari xarajatlaridan ortiq bo'lgan viloyatlar hududida soliq solinadigan bazani kengaytirish va ko'paytirishga, soliqlarni yig'ishga bo'lgan manfaatdorlikni saolab o'lishga;

- balanslashtirilgan budjetga yoki soliq yig'imlarini oshirishda unchalik katta bo'lmagan tao'chilikka ega bo'lgan viloyatlarda raYobatlantiruvchi sharoitlarni tashkil qilishga.

4. Mahalliy budjetlar imkoniyatini mustahkamlash maqsadida qonuniy tarzda faqat mahalliy soliq va to'lovlarning tarkibini aniq belgilab qo'yish, balki respublika ahamiyatidagi umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushlari dinamikasini tahlil qilish va yanada takomillashtirish ham zarurdir. Mazkur masalaning yechimini ta'minlashda, bizning fikrimizcha, quyidagi jihatlar albatta e'tiborga olinishi muhimdir:

- davlat soliq siyosatidagi har qanday o'zgarish uning hududlardagi ijtimoy-iqtisodiy holat va budjet majburiyatlarining dinamikasini, ya'ni mahalliy budjetlar imkoniyatlarining istiqbollari bilan bevosita hisoblashishi va muvofiqlashtirilishi lozim;

- mahalliy budjetlar solikli daromadlari ahamiyatining o'sib borishi

sharoitida ularning ortirib bajarilishidan soliq organlari qatorida moliya organlarining ham birday manfaatdorliklarini oshirish zarur;

- mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirishning istiqboldagi vazifalarini belgilashda soliq omillarining barqaror va muhim manba ekanligini, soliqli daromadlarning mukammal nisbatlarini ta'minlash darkor.

5. Budjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitida mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirish siyosatining qo'llanilishi tartibi va uning mezonlarining aniq ishlab chiqilmaganligi davlatning baro'aror tadbirlari tizimi oro'ali mahalliy budjetlar balansli faoliyatini kafolatlash imkonining yqo'ligi oqibatida ularga «respublika budjetidan byerilishi lozim bo'lgan yalpi moliyaviy yordam»ning iqtisodiy asoslangan me'yorlarini aniqlash uslubiyotiga zaruriyat sezilmoo'da.

6. Mahalliy budjetlar imkoniyati ular zimmasidagi majburiyatlar ijrosi bilan bog'liqligi tufayli joriy moliya yili davomida xarajat vakolatlarining tao'simlanishi tizimidagi o'zgarishlarning kiritilishi mahalliy budjetlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir etib, ular imkoniyatlari yaxshilanishiga Yoov bo'lmoo'da. Umumdavlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirishning mahalliy budjetlar zimmasiga yuklash va shu bilan birga ular moliyaviy ta'minotida mahalliy budjetlar ishtirokini talab etish hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi muo'arrardir. Shu boisdan, bizning fikrimizcha, mahalliy budjetlar xarajatlariga qattiq budjet cheklovlarini qo'llash bir vaqtning o'zida, soliq tushumlarining o'sishini ham hisobga olishi va yetarlicha budjet mustahkamligi hamda sharoitga moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajatlarni moliyalashtirish vakolatlarining taqsimotini takomillashtirish maqsadida suv xo'jaligi xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotida respublika budjeti va mahalliy budjetlar ishtirokini zamon talabiga moslash lozim. Ushbu maqsadda quyidagi yondoshuvni asoslash mumkin:

- mahalliy xususiyatga ega bo'lgan xarajatlarni, jumladan, to'g'onlarni mustahkamlash, sug'orish, kollektor-drenaj tizimlarini tozalash, sho'r bosgan yerlarni yuvish xarajatlari mahalliy budjetlarga biriktirilishi lozim;

- kapital xususiyatga ega bo'lgan xarajatlar, irrigatsiya tizimi joylashuvi va kapital ta'mirlashga katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab qilinganligi tufayli, respublika budjetiga biriktirilmog'i zarur.

Mazkur tadbir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy dasturi ijrosida adreslilikni kuchaytirilishiga xizmat qiladi.

Umuman, mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yuzasidan yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalarning hisobga olinishi davlatning mahalliy budjetlarni samarali boshqarish siyosatidagi vazifalarning o'z vaqtida va to'la amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda mahalliy moliya organlari uchun muhim ilmiy-uslubiy ko'rsatmalarni bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**I. Normativ-huquqiy hujjatlar va Prezident asarlari:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston"- 2007 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi-T.: "Norma", 2013 y.-416 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.-T.: "Norma", 2014 y.- 96 b.
4. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonuni, 1998 y, 24 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 y. 29 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonuni. 2007 y. 2 oktyabr.
7. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun, 2004 yil 2 dekabr
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari «Pensiya» jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1252-son Qarori, 2009 yil 30 dekabr
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning «Pensiya» ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4161-son Farmoni, 2009 yil 30 dekabr
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, 2003 yil 19 avgust.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruktsiya qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-499-son Qarori, 2006 yil 25 oktyabr.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2009 — 2014 yillarda O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1103-son Qarori, 2009 yil 22 aprel
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «Mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish» loyihasini ko'p transhli moliyalashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1331-son Qarori, 2010 yil 3 may
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1024-sonli Qarori (2008 yil 29 dekabr).
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1245-sonli Qarori (2009 yil 12 dekabr).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "«O'zavtoyol» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 361-son Qarori, 2003 yil 21 avgust

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlash xaqida» 2000 yil 23 dekabrda Qarori
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida" Nizom
23. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik. -T.: "O'zbekiston", 1994. 32 b.
24. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin.-T.: O'zbekiston, 1994. 32 b.
25. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. -T.: "O'zbekiston", 1998. 160 b.
26. Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: "O'zbekiston", 1999. 686 b.
27. Karimov I.A.Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. -T.: "Sharq", 1998. 104 b.
28. Karimov I.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: "O'zbekiston", 2000. 352 b.
29. Karimov I.A Ozod va obod vatan, yerkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.-T. "O'zbekiston", 2000.
30. Karimov I.A. Vatan ravnxaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: "O'zbekiston", 2001. 432 b.
31. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kyerak. -T.: O'zbekiston", 2002. 432 b.
32. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston", 2005. 528 b.
33. Karimov I.A. Xalqimiz farovonligini barqaror o'sishini ta'minlash - ustivor vazifa. -T.: «O'zbekiston», 2001.
34. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modyernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005.
35. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston", 2009 y. 56 b.

36. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: “O’zbekiston”, 2010. 80 b.
37. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O’zbekiston. 2011. 48 b.
38. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. – T.: “O’zbekiston”, 2012. 36 b.
39. Karimov I. A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modyernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish T.: “O’zbekiston”, 2013 y. 64 b.
40. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi. T.: O’zbekiston, 2014. – 64 b.
41. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, modyernizatsiya va divyersifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. T.: O’zbekiston-2015y. 71 b.

II. Darslik va o’quv adabiyotlari:

42. Alimardonov M. I., Qozieva N. R. Soliqlar va soliqqa tortish. O’quv-uslubiy qo’llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 214 b.
43. Belobjetskiy I.A. Finansovo-xozyaystvenniy kontrol v upravlenii ekonomikoy.–M.: Finansi i statistika, .-2011 g. 302 str.
44. Brovkina N.D. Osnovi finansovogo kontrolya: uchebnoe posobie / Pod red. M.V. Melnik.–M.: Magistr, 2010 g. 286 str.
45. Brovkina N.D. Kontrol i reviziya.M.: INFRA – M, 2010 g. 346 str.
46. Vaxobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya. 2008. 316 b.
47. Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. T.: Sharq. 2003. 117 b.

48. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. 526 b.
49. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2010. 804 bet.
50. Vahobov A.A., Qosimova G.A., Jamolov X.N. Budget-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. - T., «Moliya-iqtisod». 2004. 296 b.
51. Ivanyujenko A.B. Gosudarstvenniy i munitsipal'niy finansoviy kontrol. SPb.: Nestro – Istoriya, 2010 g. 398 str.
52. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budget nazorati va auditi. Info COM.UZ.MChJ. 2010 y. 120 b.
53. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y. 243 b.
54. Malikov T.S., Haydarov N.H. “Davlat budjeti”. O'quv qo'llanma. “IQTISOD-MOLIYA” - Toshkent. TMI. 2007 y. 84 b.
55. Malikov T.S., Haydarov N.H. “Budget daromadlari va xarajatlari”. O'quv qo'llanma. “IQTISOD-MOLIYA” - Toshkent. TMI. 2007 y. 261 b.
56. Malikov T., Jalilov P. Budget-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.
57. Malikov T., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.
58. Musaev B, Srojiddinova Z.X. Kontrolno-ekonomicheskaya rabota finansovix organov. T.: “MOLIYA-Iqtisod”, 2006 g. 340 str.
59. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet mamlakatlar soliq tizimi T.: TDIU. 2011 y. 511 b.
60. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya.–T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. 127 b.
61. Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. -T.: TMI, 2005. 203 b.
62. To'laxo'jaeva M.M. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimi T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998 yil. 262 b.

63. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan texnologiya", 2007. 128 b.
64. Qosimova G., Karimova Z. Budjetdan tashqari fondlar. T. "Iqtisod-moliya". 2009 y. 212 b.
65. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008. 421 b.
66. Haydarov N. "Soliqlar va soliqqa tortish masalalari". O'quv qo'llanma. "Akademiya" -Toshkent. 2007 y. 214 b.

III. Intyernet saytlari:

67. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti)
68. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasining Statistika Davlat Qo'mitasi web sayti)
69. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi web sayti)
70. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining web sayti)